

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Samarqand davlat universiteti

*TARIX fakulteti
Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi*

**XIX-ASR BIRINCHI YARIMIDA SAMARQAND TARIXSHUNOSLIGI
MANBALARDA YORITILISHI**

Magistrlik dissertatsiyasi

Bajardi: Lapasov Mirkomil

Ilmiy rahbar: dots. Ergashev B.E.

Samarqand – 2016

KIRISH

I-BOB. Buxoro amirligi davrida Samarqandning siyosiy hayoti va boshqaruv tizimi .

- I.1.** Samarqand shahrining ma'muriy boshqaruv tizimi va siyosiy hayoti.
- I.2.** Buxoro amirligi davrida Samarqand bekligiga qarashli hududlarning siyosiy hayoti va ma'muriy boshqaruv tizimi.

II.BOB Buxoro amirligi davrida Samarqandning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayoti.

- II.1.** Buxoro amirligi davrida Samarqandning ijtimoiy iqtisodiy hayoti.
- II.2.** Buxoro amirligi davrida Samarqandning madaniy hayoti.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbliği. Vatanimiz istiqlolga erishganidan so‘nggina tarixni haqqoniy yoritish va shu asosda milliy o‘zlikni anglash zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz I.A. Karimov o‘rinli ta’kidlaganidek, “Tarix xotirasi xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”¹. Mazkur ta’kiddan kelib chiqib aytish mumkinki, Samarqand nafaqat mintaqada balki, jahon miqyosida ham o‘z o‘rniga, tarixiga ega shaharlardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda, uning salkam uch ming yillik tarixini xolisona yoritish va uni keng jamoatchilikka yetkazish, shu asosda kelajak avlodni tarbiyalashda muhim tadqiqot va qo‘llanmalar yaratish bugungi kundagi olim va tadqiqotchilarining vazifalaridan biridir deyish mumkin. 2002 yil 4 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «O‘zbekiston Respublikasida shahar qurilishi kodeksini tasdikdash haqida» qonun qabul qildi. Bu esa o‘z navbatida respublikamizda shaharsozlikni rivojlantirishning qonuniy asosini yaratdi. Samarqandni shahrini rivojlantirishning 2025 yilgacha mo‘ljallangan shaharsozlik dasturi tayyorlangan. Mazkur dasturda bu shaharni turistik markazga aylantirish ko‘zda tutilmoqda. 2006 yil 25 iyulda Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlash to‘g‘risida Prezidentimizning qarori e’lon qilindi. 2006 yil 26-28 may kunlari Samarqand shahrida Samarqandning 2750 yilligiga bag‘ishlangan halqaro simpozium o‘tkazildi. Ushbu anjumanda dunyoning 38 ta davlatidan tarixchilar qatnashdi. Ushbu konferensiyada qilingan ma’ruzalar Samarqand tarixining turli davrlariga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlar hisoblanadi. 2007 yil 25 avgustda Samarqand shahrining 2750 yillik tantanalari bo‘lib o‘tdi. Ta’kidlash joizki, Samarqand tarixini o‘rganish, shaharning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish, shu bilan to‘plangan tajriba asosida shahar taraqqiyotining hozirgi va kelgusi davrlarida kechadigan ijtimoiy-iqtisodiy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. // Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 1998.-140 б.

jarayon uchun foydali bo‘lgan zarur xulosalar chiqarish imkonini beradi. Samarqand shahrining har bir tarixiy davrini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda milliy tariximizda muhim o‘rin tutgan Samarqand shahri tarixini haqqoniy yoritish, uning ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilayotgan Buxoro amrligi davri tarixini keng ilmiy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, tadqiqot mavzuining dolzarbligi ko‘p ming yillik tariximizning yangi bosqichi hisoblangan mustaqillik davrida o‘zimizning zamon va makondagi o‘rnimizni aniqlab olishimizga xizmat qiladigan o‘tmishimizni anglash, xolis baholash hamda undan yaqin va uzoq istiqbolimiz uchun hayoti-amaliy xulosalar chiqarishning zarurati bilan ham belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot mavzuining dolzarbligini yana quyidagilar bilan asoslash mumkin.

Birinchidan, Samarqand shahri tarixini o‘rganishga doir tadqiqotlarning chuqurlashib borishi ilmiy adabiyotlarda turlicha qarashlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat turli tadqiqotlar doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda, ushbu qarashlar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, xalqning tarixi, asrlar davomida to‘plagan tajribasi, bilim va tasavvurlari, shakllangan qadriyatları moddiy va ma’naviy madaniyat shakllarida ob’ektivlashadi. Bu ularni milliy tarixiy xotiraning namoyon bo‘lish shakllari sifatida qarash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, millat tarixiy tajribasining moddiy va ma’naviy madaniyat shakllarida ob’ektivlashuviga xos xususiyatlarni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Bu esa shahar tarixini tadqiq etishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Vatanimiz tarixshunosligida shaharlar tarixini o‘rganish maxsus ilmiy yo‘nalish sifatida mustaqillik yillarida boshlandi. Bu sohada qo‘yilgan dastlabki amaliy qadamlar natijasida respublikamiz viloyatlari va shaharlari haqida iqtisodiy, geografik, tarixiy va statistik ma’lumotlar shaklidagi bir qator asarlar chop etildi. Bu davrda

tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Samarqand shahri tarixiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi. Bu davrda yaratilgan «Turkiston to'plami» Samarqand tarixini o'rghanishda asosiy manbadir. Bundan tashqari XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda bo'lgan chet el sayyoohlarining esdaliklari ham zarur manbadir. Shunday sayyoohlardan biri vengriyalik sayyooh A. Vamberidir. Vamberi o'z asarlarida XIX asrning 70 yillaridagi Samarqand to'g'risida ma'lumot bergen. Uchinchi guruhga mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Bu davrda vatanimiz tarixini holisona va adolatli o'rghanishga keng imkoniyatlar yaratildi. Mustabid tuzum davridagi bir yoqlamalikka barham berildi. O'zbekiston tarixiga munosabatda yangicha yondoshuvlar asosida ilk asarlar yaratila boshlandi. Mustaqillik yillarida H.Ziyoev, N.Abdurahimova, D. Alimova, D.Ziyoeva, SH.G'afforovlarning tadqiqotlari Turkiston tarixini hamda uning ijtimoiy, iqtisodiy hayotini yoritishga xizmat qiladi. SHuningdek ularning asarlarida Samarqand tarixiga e'tibor berilgan. Mustaqillik yillarida yozilgan A.E.Kurahmedovning «XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Samarqand viloyatida iqtisodiy va madaniy hayot» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi Samarqand tarixini yoritishda katta ish hisoblanadi.. Samarqand tarixinining biz o'rghanayotgan qismi bo'yicha bir qator olimlar: D.Alimova, D.Ziyoev, R.Abdullaev, SH.Pirimqulov, SH.G'afforov. Q.Rajabov, S.Tillaboevlarning ilmiy maqolalari e'lon qiligan.

Tadqiqotning maqsadi., Buxoro amirligi davrida Samarqand shahridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, siyosiy jarayonlarni tahlil etish va shu asosda shaharning ma'muriy boshqaruv tizimi, iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayotini xolisona tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Buxoro amirligi davrida Samarqanddagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini ilmiy xolislik tamoyili asosida yoritish;
- Buxoro amirligi davrida shahar ma'muriy boshqaruv tizimini tahlil qilish;

- Samarqand shahri tarixini o‘rganishga doir tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlari va ulardan foydalanish doir ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti. Buxoro amirligi davrida Samarqand shahrini o‘rganishga doir manbalar tadqiqidan iborat.

Tadqiqot predmeti. Buxoro amirligi davrida Samarqand shahri tarixiga oid manbalarning ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlili.

Ilmiy yangiligi: Buxoro amirligi davrida Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xolisona tahlil etildi,

- tadqiq etilayotgan davrga oid shaharning o‘ziga xos hududiy tarixiy xususiyatlari ochib berildi;
- Buxoro amirligi davrida Samarqand shahri iqtisodiyotida sanoat va savdoning rivojlanish jihatlari, mavjud muammolari ilmiy asosda tahlil etildi;
- shahar tarixiga doir manbalar va yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, uning ilmiy tadqiqot strategiyasi va taraqqiyot mexanizmlari zamonaviy tarix fani nuqtai-nazardan tadqiq etilgan;
- Samarqand shahri tarixini o‘rganishga doir tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlari va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I Bob. XIX asr birinchi yarmida Samarqand shahrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy va madaniy jarayonlar

1.2. Samarqand shahrining aholisi va ma’muriy boshqaruv tizimi

Zarafshon vohasida joylashgan Samarqand viloyati Buxoro amirligining asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu viloyat o‘zining ajoyib tabiatni, xosildor erlari va go‘zal bog‘lari bilan amirlikning boshqa hududlariga nisbatan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Samarqandning o‘ziga xos

siyosiy mavqeい, boy iqtisodiy markaz sifatida ko'zga tashlanib turishi, turli davrlarda taxt tepasiga kelgan sulola vaqillarining nazaridan chetda qolmagan. Jumladan, XVIII asr o'rtalariga kelib, Buxoro xonligi mang'it urug'idan bo'lган sulola vakillarining qo'liga o'tgach, Samarqand viloyati ham amirlik tarkibiga kiritilgan. Buning uchun, sulola vakillari tomonidan harbiy yurishlar amalga oshirilib turilgan. Shuning uchun ham viloyat va ayniqsa Samarqand shahri turli davrlarda harbiy istilolar va yurishlarning ob'ekti bo'lib kelgan. Bu esa o'z o'mnida strategik va geografik nuqtai-nazardan qulay va tabiiy boy bo'lган hududda doimo iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonlari davom etib kelsada, mazkur harbiy yurishlar natijasida xalq mehnati natijasida erishilgan madaniy va iqtisodiy yutuqlar vayronagarchiliklar natijasida barbod qilingan. Biroq, yana barqarorlik davrlarida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot o'z yo'lida rivojlanishda davom etgan. Xususan, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi O'rta Osiyo xalqlarining hayotida yangi davr bo'lган. Bu davrda O'rta Osiyo xonliklari Eron shoxi Nodirshoxning vafotidan so'ng (1747) o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritib, uzoq vaqt davom etgan inqiroz davridan keyin iqtisodiyot va madaniyatni tiklay boshlaganlar. Uch xonlikda siyosiy jipslik va markaziy xokimiyatning nisbatan mustahkamlanishi natijasida o'zaro urushlarga barxam berildi. Bu davrdagi Buxoro amirligi hayotida Samarqand shahrining ahamiyati katta edi. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yirik shahar qiyofasiga ega bo'lган. Ingliz ayg'oqchisi Mir Izzatullaning guvohlik berishicha Samarqand kundan-kun rivojlanib borayotgan edi. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga uning qulay geografik joylashuvi sabab bo'lган. Shahar Zarafshon daryosining janubida joylashgan bo'lib, shimol, sharq va janubdan baland tog'lar bilan o'ralgan hamda g'arbdan unga keng ekin maydonlari tutashgan edi. Undan tashqari, shaharning joylashuvi shimoli-sharqdan Xitoy va Sharqiy Turkistondan, janubi-sharqdan Hindistondan, g'arb tomondan Xorazm va Buxoro orqali keluvchi Eron, Kaspiybo'yi yerlaridan, shimoldan esa Rossiya erlaridan keluvchi savdo karvonlari uchun qulay tutashish joyi bo'lган. Mana shu jihatlar shahardagi savdo ishlarini

rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Manbalarda shahar ta’rifiga ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Misol uchun, Bobur o‘z asarida Samarqand va uning atrofidagi tabiatga ta’rif berar ekan “Misr va Suriyani ko‘rgan sayyoohlar bundan boshqa sog‘lom joyni ko‘rsata olmaydilar”, degan. N.V.Xanikov esa Samarqand va uning atroflari “uch ariq suvi bilan sug‘orilganligini”, ta’kidlaydi. Shahardan atrofiga daraxtlar ekilgan asosiy ariq o‘tgan. Bu ariq kichik ariqlarga ajralib xonadonlarga suv etkazib berib, bog‘ va tomorqalarni sug‘organ. Namlikning ko‘pligi Samarqand havosini toza va bahavo qilgan. Shuning uchun samarqandliklar ancha sog‘lom bo‘lganlar. Ularning yuzlari toza va buylari uzun bo‘lgan².

Abu Toxirxoja “Samariya” asarida shahar iqlimining ajoyib va mu’tadil ekani, shuning uchun uni “firdavsi monand” – jannat misoli deb atashini yozgan. YOzda Samarqand nisbatan issiq va sovuqlari mu’tadil ekani, har tomonidan esuvchi mayin shamollar va havo, kayfiyatni ko‘tarishi, ruxiy sokinlikni ta’minlashi haqida yozadi³.

XIX asr boshida Samarqand tomonidan egallagan hudud kengayib borgan. N.V.Xanikovning ma’lumot berishicha “shahar aylanasi 13 vyorstga⁴, uning kvadrat yuzasi 2280000 sajenga⁵ yoki 2533,31 tanobga teng bo‘lib, Buxoro tomonidan egallangan hududdan 500 tanobga katta”⁶, deb ma’lumot beradi. Ya’ni, mazkur davr shaharning kengayishi va urbanizatsiya jarayonini jadallahib borayotgan edi.

O‘rta asrlar shaharlari kabi Samarqand ham mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, shinaklari, minoralari bo‘lgan. Shahar devorlari ruslar bosqini davrida buzib tashlanib, Suzangaron mahallasi qismida uning ayrim qoldiqlari ko‘zatiladi⁷.

² Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканда, 1992. – С.

³ Абу Тохир Хожа. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Пер. В.Л.Вяткина. – Справочная книжка Самаркандской области за 1889 г. Вып. IV. – Самарканда, 1889. – С. 161.

⁴ Верста – чакирим (1,06 км га тенг масофа ўлчови).

⁵ Сажень – саржин (уч газга ёки 2 ,134 метрга тенг узунлик ўлчови).

⁶ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 100.

⁷ Сухарева О.А. Оборонительные стены Самарканда. В кн.: Культура и искусство народов Средней Азии в древности и средневековье. – М., 1979. – С. 85-89.

Bir so‘z bilan aytganda, qadimdan O‘rta Osiyoning yirik shaharlardan biri bo‘lgan Samarqand XIX asr birinchi yarmida nafaqat Buxoro amirligi, balki O‘rta Osiyoning yirik savdo va madaniy markazi sifatidagi mavqega ega bo‘lgan shahar edi.

Bu shaharda kechgan qizg‘in iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o‘z o‘rnida ijtimoiy jarayonlarni murakkabligiga sabab bo‘lish bilan bиргаликда madaniy jarayonlarni xilma-xilligi va rang-barang bo‘lishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Samarqand shahrining XIX asrdagi mavqeiga ta’rif berar ekanmiz T.S.Saidqulovning “shahar xonlik (amirlik) ning bosh shahri hisoblangan”⁸ degan ta’kidini va rus muallifi F.Nazarovning “birinchidan, tarixiy va diniy sabablar oqibatida, ikkinchidan, mamlakatdagi aholisi eng zich, boy viloyat markaziy shahri sifatida” degan fikrini keltirib o‘tishimiz o‘rinlidir.

Rossiya imperiyasi istilosiga qadar shaharda butun amirlikdagi kabi islom dini tushunchalari va an’anaviy turmush-tarzga asoslangan holda aholining ijtimoiy munosabatlar tizimi hukm surgan. Ya’ni, islom tushunchalari, aholining turmushida, ijtimoiy munosabatlari va hattoki siyosiy boshqaruв tizimida o‘z aksini topgan.

XIX asr birinchi yarmida savdo rivojlanishi natijasida Buxoro amirligida shaharlar aholisining soni o‘sib borishi ko‘zatiladi. Bu davrda, ayniqsa, Rossiya bilan savdo munosabatlari keng rivojlangan. Urbanizatsiya jarayonlarining o‘sib borishi ko‘zatilsa-da, shaharlar aholisining turmush tarzi va xo‘jaligi qishloq bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyo shaharlarida yirik ishlab chiqaruvchi xujalik: fabrika va zavodlar yoki yirik manufakturalar shakllanmagan. Bunga bir tomondan, XVI asrdan boshlab buyuk ipak yo‘lini o‘z ahamiyatini yo‘qotishi natijasida hududni jaxon savdo yo‘llaridan chetda qolishi va bu erda ishlab chiqariluvchi mahsulotlarni katta xajmda jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatini qiyinligi sabab bo‘lgan. Ikkinci tomondan, yirik ishlab chiqaruvchi xujaliklarni taraqqiy etmaganligi shaharlardagi urbanizatsiya jarayonlarini

⁸ Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. – Самарканд, 1970. – С. 8.

jadallashmaganligiga sabab bo‘lgan.

Samarqand shahrida ham shu kabi holat hukm surgan. XIX asr birinchi yarmidagi shahar aholisining soni, uning o’sishi dinamikasi haqida batafsil ma’lumotlar manbalarda uchramaydi. Shaharlardagi aholi soni, shu jumladan, Samarqand aholisi haqidagi ma’lumotlar xilma-xil va turlichadir. Masalan, Meyendorf ma’lumotlariga ko‘ra 1820 yilda Samarqandda 50 ming aholi istiqomat qilgan bo‘lsa⁹, N.Xаныков 1841 yilda 25 ming, 1863 yilda A.Vamberi 20 minggacha, 1868 yilda V.V.Radlov 10 mingdan oshiq kishini keltirib o‘tishgan¹⁰. Prof. P.P.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarining asarlarida esa 30 mingga yaqin istiqomat qilgan, deb aytildi¹¹. Boshqa manbalarda esa, Samarqand atroflarida 80000 o‘zbek oilalari istiqomat qilgan deb ko‘rsatiladi. Mazkur holatda shahar aholisi soni haqida yagona fikrning mavjud emasligi aholining milliy – etnik tarkibi, ijtimoiy guruhlar va umuman xalq turmushining ko‘pgina sohalari bo‘yicha xulosalar chiqarish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Biroq, ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, Samarqand shahri va uning atroflari vohadagi eng aholi zinch istiqomat qilgan hudud bo‘lgan.

E’tiborli jihat shundaki, Zarafshon vohasi va umuman Samarqand shahri yirik markaz hisoblansa-da shahar aholisining katta qismini turmush-tarzi qishloq xo‘jaligi, ya’ni shahar atrofidagi aholi bilan bog‘liq bo‘lgan. SHahar aholisining soni xajmli bo‘lmasa-da shahar atrofida yashovchi aholining soni ko‘pligi hamda ularning Samarqand iqtisodiy hayotida ishtiroki katta bo‘lgan. SHu nuqtai nazardan, shahar aholisi va ularning turmushini tavsifini keltirganda shaharga yaqin hudud aholisining turmushi va xo‘jaligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

1868 yilda Zarafshon okrugining faqat Samarqand bo‘limida (tog‘li

⁹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 90.

¹⁰ Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 9.

¹¹ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – М., 1958. – С. 120; Абрамов М.М. Социально-экономическая и культурная жизнь Самарканда в XVI – первой половине XIX в. Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 1989. – С. 27.

tumanlardan tashqari) aholi 179.522 kishini tashkil etgan¹². Buxoro amirligi tarkibidagi Samarqand viloyatida qancha aholi yashaganligi to‘g‘risida manbalarda aniq ma’lumotlar yo‘q.

Arxiv ma’lumotlari va ilmiy adabiyotlar ma’lumotlarini tahlil etgan holda T.Saidqulov shahar aholisi sonini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar 30 ming kishidan oshmaganligini ta’kidlaydi. Bu, taxmin to‘g‘ri deb aytish mumkin. Chunki, o‘rganilayotgan davrda Zarafshon vohasi, umuman, Buxoro amirligida aholining katta qismi qishloq xo‘jaligida mashg‘ul bo‘lib, asosan qishloqlarda istiqomat qilishgan bo‘lsa-da, Samarqand shahri viloyat markazi, yirik savdo markazi hamda hududiy savdo munosabatlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan hamda hunarmandchilik keng rivojlangan shahar sifatida aholisining XIX asr sharoitida 30 ming atrofida bo‘lishi tabiiy holat deb baholanishi mumkin. Albatta, bu kabi yirik madaniy va iqtisodiy markaz bo‘lgan shaharda bu xajmdagi aholini istiqomat qilishi urbanizatsiya jarayonini so‘stligidan dalolat berishi mumkin. Lekin, mazkur davrda mintaqqa ichki va tashqi savdosi juda katta xajmdagi tovar ayrboshlashini ta’minlay olmasligi natijasida shahar aholisining katta qismini tashkil etuvchi hunarmandlar va savdogarlar soni ham kamligi, undan tashqari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi o‘zaro keskin feodal ziddiyatlar davrida savdo ishlarining susayishi shaharlarda, shu jumladan, Samarqand shahrida ham hunarmandchilik ishlab chiqarishining kamayishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida shahardagi bozorlardagi savdo xajmining pasayishiga, mahsulotlarga bo‘lgan talabning pasayishiga va shu kabi qator omillarga sabab bo‘lganki, natijada shahar aholisining soni o‘sishdan to‘xtagan va ba’zi holatlarda kamayishga sabab bo‘lgan. 1723-1729 yillarda Samarqand viloyati o‘zaro urushlar davomida ayovsiz talangan. Shahar aholisining ko‘pchiligi Hisor, Farg‘ona, Buxoro, Zarafshonning yuqori oqimi hududlariga kuchib o‘tgan. “Ularning katta qismi o‘z manzillariga yetmasdan ochlikdan qirilib ketgan”. “Oddiy aholi o‘z

¹² Сайдқулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 9.

farzandlarini sotib kun ko‘rishgan, ba’zilari esa ochlikdan nobud bo‘lgan”¹³. Hususan, XVIII asr oxirida qog‘ozsoz ustalarning boshqa hududga, Farg‘ona vodiysiga kuchib o‘tishlari ham bunga misol bo‘la oladi.

Biroq, ta’kidlash joizki Samarqand va uning atroflari, va umuman Zarafshon vohasi hududi doimo aholi zich istiqomat qiluvchi hudud hisoblangan. Bu haqda ko‘plab e’tiroflar manbalarda uchraydi. Zamondosh mualliflarning matbuotda keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra Zarafshon okrugi Rossiyaning eng aholisi zich istiqomat qilgan hududlarini ham aholi zichligi bo‘yicha ortda qoldirishini va hatto aholi zichligi bo‘yicha G‘arbiy Evropadagi unumdar viloyatlardan ham qolishmasligini ta’kidlashgan.

Turkiston o‘lkasining birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman ham o‘zining ko‘p yillik faoliyati hisobotida Zarafshon daryosi havzasida aholi zichligi va sug‘orma dehqonchilikni izchillik bilan amalga oshirilishiga etibor qaratadi. Kaufman bu hududlar aholisi zichligini Lombardiya bilan taqqoslaydi.

O‘rganilayotgan davrda shahar hayoti nafaqat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan nisbatan so‘sht rivojlanayotgan edi, balki ijtimoiy munosabatlarda ham eskicha, ijtimoiy-siyosiy va qolaversa iqtisodiy rivojlanishga tusiq bo‘luvchi holatlar mavjud edi. XIX asr 60 – yillarida amirlidagi kabi Samarqandda ham qulchilik saqlanib qolgan. Samarqandda yirik qul bozorlaridan biri faoliyat yuritgan bo‘lib, unda qullar 35-80 tillo tanga miqdorida olib-sotilgan. Qulchilikning asosiy manbai urushlar natijasida qo‘lga olingan asirlar. Oddiy aholi ba’zan moliyaviy ahvoli og‘irlashishi natijasi o‘z farzandlarini qullikka sotganlar. Mazkur ma’lumotlar amirlik va xonliklarda aholi turmush darajasini naqadar nochor va chorasiz holatda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Aholini tarkibidagi etnik birliklarni jamiyatdagi mavqeiga qarab muayyan ijtimoiy tasniflash mumkin. Davlat boshqaruvida nufo‘zli lavozimlarni egallagan tabaqalarga o‘zbeklar kirgan. Ular bir urug‘ga mansubligi va doimiy xizmat natijasida shuxrat qozongan. A.A.Semyonov davlat lavozimida yetakchi

¹³ Беневени Ф. Реляция из Бухары от 10 марта 1722года.

o‘rnlarni o‘zbeklar egallaganligi, tojiklar ham oz bo‘lsa-da davlat lavozimlariga tayinlanganligi, hududlarda amirlikdagi amaldorlarning asosiy qismi ziyorilar orasidan (o‘zbeklar, tojiklar, arablar va b.) shakllangan, deb qayd etadi.

Jamoalarni oqsokqollar (oqsoqol, ellikboshi) boshqargan. Katta oqsokqollar jamoanining xo‘jaliq jamoat va oilaviy ishlarini boshqargan. O‘rtal yoshdagilar va yoshlar ularga bo‘ysungan. Ijtimoiy va jamoaviy tadbirlar ularning nazorati va amir ma’muriyatining ko‘rsatmalari asosida amalga oshirilgan. Bu holatda oqsoqol amir ma’muriyatining vakili sifatida ish yuritgan. Yoshi ulug‘larning aholi jamoasiga ta’siri katta bo‘lgan. Bu esa jamoadagi qarashlar, diniy urf-odat va marosimlar, axloqiy me’yorlarni mustahkamlab borgan. Ayniqsa, qishloqdagi umumiy hayot patriarchal, turg‘un holatda edi. Bu erdagagi jamoa munosabatlari, shahardagiga nisbatan aholining xo‘jalik faoliyati bilan, asosan yerdan foydalanish, suvdan foydalanish, chorvachilik va hokazolar bilan xususiyatlangan.

Mahalla jamoasida chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kechgan. Shaharlarda aslzoda kishilar, oddiy qatlamlarga mansub kishilar yashagan. Qishloqdarda ham turli ijtimoiy tabaqa vaqillari dehqon, zodagon, ruhoniylar va boshqalar bir-biriga yaqin yashaganlar. Qishloq jamoasida shunday qonun hukumron ediki, yuqori mavqeli, boy zodagonga quyi qatlam aholi vakillari buysunishi, itoat etishi, tabiiy hol hisoblangan.

Shahar aholisining etnik tarkibi nihoyatda hilma-hil bo‘lgan. Bu yerda tojiklar, o‘zbeklar, arablar, afg‘onlar, hindlar, lo‘lilar, yahudiylar va boshqa turli millat vakillari istiqomat qilishgan. Ularning XIX asr birinchi yarmida son jihatdan aholi tarkibidagi ulushini aniqlash uchun aniq tarixiy ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, ayrim etnik birliklarning nima sababdan bu shaharda istiqomat qilishlari, ular mashg‘ulotlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Aholining katta qismini tojiklar va o‘zbeklar tashkil etgan. Yahudiylar haqida V.V.Radlov “ular 100-150 yil oldin Erondan avval Buxoroga, keyin Samarqandga ko‘chib kelishgan”, deb ma’lumot beradi. A.F.Fayziev arxivda saqlanayotgan vasiqa ma’lumotlariga tayanib

ma'lumot berishicha yahudiylar alohida mavzeda istiqomat qilishgan. Unda keltirilishicha 1843 yili amir Nasrullo Samarqand shahrining ichida, sharqiy darvoza yaqinida, Chokardiza qabristoni yonida o'n ming kumush tangaga alohida go'zar tashkil qilishlari uchun ularga 11 tanob erni sotgan¹⁴ligi haqida fikrlarni keltiradi.

XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand shahri aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Imperiya boshqaruvi tizimining o'rnatilishi va yangi etnik hamda siyosiy kuch sifatida rus fuqarolari, ya'ni Rossiya imperiyasiga xizmat qiluvchi turli millat vakillaridan iborat bo'lgan turli hil sohalar mutaxassislari, ko'chirish siyosati natijasida hududga kelib o'mashgan oddiy rus aholisi ham aholining etnik tarkibiga o'zgartirish kiritgan. D.L.Ivanovning ma'lumot berishicha Samarqandda yashovchi yahudiylar musulmon amirlik davrida huquqsiz holatda bo'lib, ular shaharda o'zlar uchun sinagoga qo'rish, otda yurish, musulmonlar kiyimlarini kiyish, etik kiyish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega emas edilar. Ular uchun bozor orqasida alohida mavze ajratilib, barcha yahudiylar o'sha mavzeda istiqomat qilishgan. Shu tariqa "jugut go'zar" shakllangan. Samarqand rus qo'shinlari tomonidan egallanishi va rus hokimiyatini o'rnatilishi bilan mahalliy aholi va yahudiylar ham imperiya uchun bir hil – qaram aholi maqomiga ega bo'ldilar va ularga nisbatan bir hil munosabat o'rnatildi. Yahudiylarga nisbatan amirlik davrida joriy etilgan ta'qiqlar bekor qilingan. Natijada yahudiylar ruslar va imperiyaning o'lkadagi hokimiyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. Yahudiylar ruslar bilan yaqinlashib, tezda rus tilini o'zlashtira boshladilar¹⁵.

Yahudiylarga ta'rif berar ekan D.L.Ivanov ularni "mahalliy aholi orasida eng uddaburon, ularning savdogarlari boshqa barcha savdogarlarga raqobatdosh bo'lib, birinchilardan bo'lib yangilikka qo'l o'rishganligini, yahudiylar birinchilardan bo'lib rus akusherlariga murojaat qilishgani, rus ta'lim muassasalarida o'qiy

¹⁴ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 8.

¹⁵ Иванов Д.Л. Самарканд. – М., 1872. – С. 53.

boshlaganlarini ta'kidlaydi. Undash tashqari, yahudiylar qo'shni xonliklarda bo'layotgan barcha siyosiy jarayonlarni tezda, birinchi anglab, u haqda ruslarni ogohlantirishib turgan...”¹⁶.

Shahar mikrotoponimikasi go'zarlar tarixini, aholi mehnati hususiyatlarini va nomlar kelib chiqishini o'zida aks ettiradi. Guzarlarda ishlab chiqarish-hunarmandchilik hususiyatiga qarab aholi istiqomat qilgan. Zargaron mahallasida tillo buyumlar yasovchi ustalar, Suzangaronda igna yasovchi ustalar, Charmgaronda terichilik va teri mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shug'ullanuvchi ustalar, Xarrotonda yog'och ustalari, Kulolonda kulol ustalar, Zingaronda egar-jabdug' va ot abzali yasovchi ustalar, Sharbatdorda turli shirin ichimliklar tayyorlovchi hunarmandlar istiqomat qilishgan. Undan tashqari Toshkandi, Xujandi, Urguti, Zomini, SHahrисabzi, Urmitani, Qashqari kabi go'zarlar bo'lganki, ulardag'i aholi kelib chiqishi joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan. YA'ni, bu go'zarlarga aholi mazkur nomdag'i joylardan ko'chib kelgan. Ba'zi go'zarlarning nomlari shahar me'moriy yodgorliklari nomlari bilan bog'liq bo'lgan. Bunga Ruhobod, Guramir, Oq-saroy, Namozgoh, Ko'kmachit, Xonaqo, Madrasai Safid go'zarlarini kiritish mumkin. Alovida Samarqand shahri topografiyasi bilan bog'liq go'zar nomlari uchraydi: Labi-g'or, CHaqar, Toli-Regak, Baland-Ko'prik, Bog'i-baland, Kabolai YAkum, Kabolai Duvvum, Puli mirzo, Gilburch va hokazo. Shahar tabiatini bilan bog'lik go'zarlar nomlariga Kavarzor, Lolazorlarni keltirish mumkin. Navadon, Obimashad, Doniyorbek, Kulobod kabi nomlar shahardagi suv inshootlari, sun'iy ariqlar, suv manbalari nomlaridan kelib chiqqan. Olimlarning nomlari berilgan go'zarlar bo'lgan: Faqix Abullays, Maxtumi Xorazmiy va boshqalar¹⁷.

Samarqand shahri aholisi haqida tavsif berganda shaharning tarkibiy qismlari bo'lgan mahallalar tavsifini berish o'rinnlidir. Zero, shahar aholisi o'z mashg'ulotlari va turmush-tarziga qarab alovida-alohida guzarlarda istiqomat

¹⁶ Иванов Д.Л. Самарканд. – М., 1872. – С. 54.

¹⁷ Абрамов А.А. Гузары Самарканда. – Ташкент; Узбекистан, 1989. - С. 4.

qilishgan. Samarqand shahri qiyofasi doimo yangi tashkil etilgan mahallalar yoki mavjudlarini kengayishi hisobiga o‘zgarib borgan. Shahar guzarlari ijtimoiy ahamiyatdan tashqari ma’muriy ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalarida Samarqand baland paxsa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, XX asr 70-yillarida ularning katta qismi shaharni qayta qurilishi davrida buzib tashlangan.

Shahar topografiyasi o‘z o‘rnida mahallalar hususiyatidan kelib chiqib, aholi xo‘jalik hayoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va shahar bo‘ylab joylashuvini gavdalantiradi.

Guzarlarni aholining umumiy yig‘ilishlarida saylanadigan oqsoqollar boshqargan. Har bir mahallaning o‘ziga markazi bo‘lib, u yerda masjid va choyxona bo‘lgan. ushbu markazlarda savdo-ishlab chiqarish ustaxonalari, do‘konlar va uncha katta bo‘lmagan bozorlar ham mavjud bo‘lgan¹⁸. Mahallalar esa o‘z o‘rnida qit’a-qismlarga birlashib, ularni hokimlar boshqargan. O‘rganilayotgan davrda shahar 4 ta qit’aga bo‘lingan: Qalandarxanin, Suzagaron, Xayrobod, Xuja Axror.

Bu kabi siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda ijtimoiy o‘zgarishlar boshqa turli etnik birliklar bilan ham sodir bo‘lib turgan. Albatta, bu o‘rinda mahalliy aholi vakillari (o‘zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, arab va dungan) ning ahvoli ruslarga nisbatan huquqsizligicha qolgan. Bu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yahudiylar ham mahalliy aholi qatorida huquqsiz bo‘lsa-da, ular rus siyosatiga juda tez moslashganlar. Shu tufayli ular, oldingi siyosiy tuzumdagiga nisbatan yangi siyosiy sharoitlarda, ayrim yutuqlarga erishishgan.

Shahar aholisining ijtimoiy guruhlari va ularning mashg‘ulotiga turiga qarab ham tasniflangan. Maxsulotlarni turiga qarab savdo qiluvchi mayda savdogarlar - bazzozlar, attorlar, baqqollar kabi nomlar bilan atalgan. Bazzozlar - turli gazlama matolarni sotish bilan shug‘ullangan. Attorlar - (arab, ziravorlar

¹⁸ Абрамов А.А. Гузары Самарканда. – Ташкент; Узбекистан, 1989. – С. 5.

sotuvchi) turli mayda attorlik hamda bo'yoq mollar, munchoq ip, bog'ich, mayda-chuyda metall bezaklar, oynalar, ba'zida do'ppilar; bo'lar bilan birga gugurt, kalampir, xushbo'y o'tlar, buyoqlar va nihoyat, maxalliy dori-darmonlarni tayyorlab, sotish bilan ham shug'ullanganlar. Bunday dorilarni tayyorlash va foydalanish usullari boshqalardan sir tutilib, faqat otadan o'g'ilga o'rgatilib borilgan. Shu tomonlama attorlik barqaror hisoblanib, savdodan tushayotgan arzimagan daromadga qaramay, bu kasb avloddan-avlodga merosiy bo'lib o'tib borgan.

Samarqand atrofida o'zbek urug'larining qang'li, nayman, qo'ng'iroq, qipchoq xitoy, sayot, qiyot, chig'atoy, durmon, ushun, olchin, ming, qirq, yuz, qaraqalpoq saroy, qirgiz, turk mang'it, baxrin kabilar istiqomat qilgan.

Samarqandda etnik birlik sifatida alohida hindlar ham istiqomat qilishgan. Ular Samarcandga savdo maqsadida kelishgan va shu yerda o'rnatilganlar. Ular asosan so'dho'rlik, hind mahsulotlarini sotish va shu kabilar bilan shug'ullanganlar.

Aholi turmushida islom aqidalari, shariat tartib-qoidalari qat'iy o'rnatilgan. Oilada, islomning hukumron ta'siridagi jamoat tartib va qoidalari hukumrolik qilgan. Jumladan, 7-8 yoshdan boshlab, har qanday oila a'zosining harakati, uy-fikri, hissiyotlari mavjud o'rnatilgan qoidalardan chetga chiqmasligi lozim edi. Erkak oila boshligi hisoblangan va barcha masalalar faqat u orqali xal etilgan. Ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum etilgan. Ya'ni ayollar ijtimoiy huquqsiz hisoblangan. Ayollar fakat uyda o'tirib, ro'zg'or yumushlarini bajarishi, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi lozim edi. Ayol kishining jamoat orasida, ko'cha-qo'yda ochiq yuzda yurishi, begonalar bilan munosabatda bo'lishi ma'n etilgan. Ayollarning oila ishlariga aralashishiga yo'l qo'yilmagan, ularni xohish-istiklari inobatga olinmagan. Oila hayotida ayol qadri ko'pincha kamsitilgan va tahqirlangan holda bo'lib, bu islom bilan bog'liq ta'qiq va cheklardan kelib chiqqan. Sharoitga muvofiq ayollar masjidlarga

bormasligi, lekin uylarda diniy amallarni bajarishlari mumkin bo‘lgan. Jamoat qoidalaridan chetga chikkan, engiltaklik qilgan, nikohsiz aloqalarda bo‘lgan ayollar o‘limga maxkum etilgan¹⁹.

Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda islom va shariat axloq-qoidalapi umumbashariy axloq me’yorlaridan ham yuqori turgan. Undan tashkari, aholi urf-odatlari, an’analari, kundalik turmush tarzi ham shariat qoidalari asosida olib borilgan.

O‘z ijtimoiy holati va ta’siridan foydalanib, shariat qonun- qoidalari bilan himoyalanib yurgan din vakillari asrlar mobaynida o‘rnatilib kelingan har qanday me’yor va qoidalari o‘zgartirilishiga qarshi bo‘lib, bu boradagi yangilanishga bo‘lgan intilishlarga doimo qarshi turgan. Jamiyatning har qanday a’zosi ularning so‘zini qarshiliksiz inobatga olgan.

Aytish joizki, xalqning ishonchi va xayrihoxligidan foydalangan bu ijtimoiy qatlamlar ko’p hollarda islom va shariat qoidalariiga zid harakat olib borgan. Jamiyatda adolatning qaror topishida, jinoyatni aniqlash va jazo belgilashda shariat qonunlari va asrlardan - asrlarga o‘tib kelayotgan odob – ahlok qoidalari asosiy mezon bo‘lgan. Lekin fuqarolik va jinoiy ishlarni ko‘rib chiquvchi qozilar sud ishlarini ko‘pincha adolat yuzasidan olib bormagan.

XIX asrda shariat ahkomlari O‘rta Osiyo va Samarqand shahar aholisi orasida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan tartib-qoidalalar sanalgan. Mazkur qonun-qoidalalar muqaddas adabiyotlardaadolatli va jamiyat hayotini to‘g‘ri tashkil etishga qaratilgani holda bayon etilgan bo‘lsa-da, o‘rganilayotgan davrda xalq ma’naviyatining pasayib borishi va oddiy aholini ilm-fandan yiroqlashuvi ular tomonidan amal qilinuvchi qoidalarni xalqni o‘zini ustidan zulmni kuchaytirish maqsadida hukmron sinf tomonidan bo‘zib talqin etilishi holatini keltirib chiqargan. Bu esa o‘z navbatida, bugungi kun nuqtai-nazaridan baholanadigan bo‘lsa, ijtimoiy inqirozning bir ko‘rinishi deb atalishi mumkin. Ya’ni, o‘rganilayotgan davrda ta’lim va tarbiya tizimining jahon taraqqiyotidan orqada

¹⁹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 145.

qolishi, hukmron sinf tomonidan jabr-zulmning kuchayib ketishi, oddiy mehnatkash xalqning turmush sharoitlarini og‘irlashuvi natijasida insonlarda dastlab iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga, oila a’zolarining yaxshi turmushini ta’minlashga bo‘lgan intilish asosiy hayotiy ehtiyojni tashkil eta boshladi. Bu holat aholining asosiy qismini tashkil etgan mehnatkash aholining ijtimoiy hayotida ilm-fan va ta’lim masalalarini orqada qolishiga sabab bo‘ldi. Ana shunday bir sharoitda din aholiga ta’sir etishning muhim quroliga aylanib bordi. Diniy mutaasiblik ortib bordi.

Bu davrda xatto dinning siyosatga ham ta’sir o’tkazganligini ko‘rish mumkin edi. Jumladan, davlat boshqaruv borasida faoliyat yuritgan u yoki bu mansabdagi shaxslar go‘yoki islom va shariat nuqtai-nazaridan davlat vazifalarini bajarayotganligini ko‘rsatishga uringan. Shariatdan o‘ziga xos zodagonlik huquqi sifatida foydalangan zodagonlar, din ruhoniylari u orqali o‘zlarining sinfiy manfaatlarini, zulmga asoslangan faoliyatini himoyalashga uringan. Ya’ni, amir, bek amaldorlar, ruhoniylar shariatdan oddiy xalqni ezish, boylik orttirish va umuman, o‘z manfaatlari yo‘lida ko‘rol sifatida foydalangan.

Amirdan tortib eng quyi amaldorgacha, shuningdeq islomga da’vat etuvchi va uning «himoyachisi» bo‘lgan din ruhoniylari ham, islom va sharoit qonun-qoidalari moxiyatini o‘zlari to‘liq anglab yetmay, davlat tartibi va sharoit qoidalari «bo‘zganlarni» qattiq jazolab, amalda esa o‘zlari o‘z bilganlaricha ish yuritdilar. Shu o‘rinda, jamiyatda «tartib o‘rnatuvchi»larning tavsifini ma’rifatparvar Ahmad Donish quyidagicha izoxlaydi: «Ularga yaxshilab e’tibor karatsak «-deydi u», - amir - axloqsiz va qonxur, qozi - uchiga chiqqan poraxo‘r va ta’magir, rais - poraxo‘r va xudosiz, mirshabboshi aroqxo‘r, qimorboz va qaroqchi»²⁰.

Darhaqiqat, biz ko‘zdan kechirayotgan davrda hukumron sinf tomonidan oddiy xalqni ezish, jabr-zulm ko‘rsatish, ikki yuzlamachiliq ta’magirliq poraxo‘rliq bo‘zo‘qliklar avjga chiqdi. Kambag‘allar, yersiz dehqonlar va

²⁰ Трактат Ахмада Дониша. История Мангитской династии. – Душанбе, 1967. – С. 83.

umuman oddiy xalqning zo‘ravonnlilik va zulm, soliq - to‘lovlardan qimirlashga madori yo‘q edi.

Buxoro amirligiga kelgan va bu yerdagi islom va shariat, huquqiy va axloqiy qoidalar va odatlarda salbiy hususiyat aks etganligini ko‘rgan A.Vamberi shunday deb yozadi: «Bu erda odam faqat insonday ko‘rinsa bo‘ldi, uning ko‘nglida nima borligi bilan hech kimning ishi yo‘q. Islom shariat qoidalari, amallarini yuzaki tarzda bajarib, aslida esa johil, zulmkor bo‘lib, jazodan qochib qutulib yurish ham mumkinligini nazarda to‘tadi. Shuningdek Buxoro va Samarqand islom dini markazlari hisoblansa-da,” – deydi u. “XIX asr o‘rtalariga kelib, bu yerda diniy mutaassiblik shu qadar kuchayib ketdiki, bu ezgulik va insoniylikdan ko‘ra, ko‘proq johillik adolatsizlik insoniy huquqlarniig poymol etilishi kabi salbiy holatlar bilan kechdi”²¹.

Asrlardan asrlarga o‘tib, saqlanib kelingan urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlar, bayramlarning xalq tomonidan bajarilib kelinishi, xalq turmush tarzining ajralmas tarkibi sifatida saqlanib kelayotgan an’analarga sodiqligini yanada mustahkamlangan. Ayniqsa, diniy marosimlarning ommaviy ravishda bajarilishi islom bayramlarining boshqa an’analar bilan umumiylashtirishga ega ekanligi an’anaviy asoslardan hisoblangan.

Ana shunday musulmonlar uchun an’anaviy diniy bayramlardan islomning ikkita bayrami, bu ro‘za tugallangan oy oxirida iishonlangan-Ramazon xayiti va qurban keltirish bayrami - Qurban xayiti hisoblanadi. Ikkala bayramni musulmon aholisi shahar va yirik qishloqlarda toat-ibodat bilan nishonlasalar, maxsus masjidlarda (namozgox) ham dabdabali tarzda o‘tkazganlar. Ramazon oyida aholi ko‘chalarda va yarim kechalarda bemalol yurishi mumkin bo‘lgan. Bu oyda madrasalarda ta’lim berish jarayoni to‘xtatilgan.

Ro‘za xayiti kunida hamma bayram kiyimida yurib, uy va joylarini tartibga keltirib, bir-birlarinikiga mehmonchilikka borib bayram bilan tabriklaganlar. Qurban xayiti kunida bayram ibodatidan so‘ng har bir musulmon oilaviy

²¹ Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва: Изд. А.

sharoiti yaxshi bo‘lsa, masjidda biror xayvonni ko‘rbonlik qilgan. Agar kimdir kambag‘al bo‘lsa, unda bir necha kishi birlashib, qo‘y, echki yoki molni ko‘rbonlik qilishga harakat qilgan. Har kaysi oila xayotida bir marotoba bo‘lsa ham ko‘rbonlik keltirishni niyat qilgan.

An’anaviy bayramlardan yana biri – Navro‘z nishonlangan. O‘z mohiyatida zardushtgiylik dini qirralarini saqlab qolgan bu bayram ham xalq tomonidan yaxshi nishonlangan. Bu bayramda ham ko‘chalarda, bozorlarda xalq sayli bo‘lgan.

Ayollar o‘rtasida ham ba’zi bir an’analar ko‘chli ta’sirga ega hisoblangan. Ana shunday diniy ta’sirga ega bo‘lgan marosimlarga «Bibi-Seshanba» va «Bibi-Mushqilkusho» kabilar kirgan. Bu marosimlarda ayollar to‘planib, risolalar (rivoyat, doston) o‘qilgan, izoxlangan va turli taomlar tayyorlangan. Ayniqsa, ayollar o‘rtasida bunday diniy amallar, marosimlar, toat-ibodatlarni bajarib borishda - otinbibilarining o‘rni muxim hisoblangan. Ularning ayollar o‘rtasida mavqeい baland bo‘lib, bu an’anaviy marosimlarda otinbibilar bosh ijrochi rolini bajarishgan.

Buxoro amirligida bo‘lgani kabi, Samarqand viloyatida ham ijtimoiy, me’yoriy va an’anaviy munosabatlar islom va shariatning ko‘chli ta’sirida bo‘lgan. Bu oddiy turmush tarzidan tortib, yer-suvga egalik munosabatlarida, jamoat tartiblarida, marosim va an’analarda, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topgan edi. Yuqorida aytib o‘tilgan munosabatlarga dinning shu qadar kuchli ta’sir ko‘rsatishi natijasida, jamiyatda tabaqalanish va tengsizliq turg‘un xayot, qoloq iqtisodiy munosabatlar, diniy mo‘taassiblikning kuchayishi kabi holatlar jamiyat tarakkiyotigga jiddiy to‘siq bo‘lgan.

Turkistonda Rossiya imperiyasi bosqinidan oldingi davrdagi aholi turmushi va xo’jaligi ahvoli hususida so‘z yuritar ekan, tarixchi Mirza Olim Maxdum Xojining “Xonliklar davrida aholi nihoyat darajada olamdan bexabar bo‘lganlar. Qadimgi haqqoniy ulamolardan oz qolib, holis taqvo bo‘lmay, riyokor va xushomadguy ko‘paymoqda edi”. Undan tashqari, mansablarga tayinlanishlarda

faqatgina hushomadguy va ilmsiz kishilar tayinlangan. Hukumat ishida mutlaqo intizom va tartib bo‘lmagan. Aholidan olingan soliq va to‘lovlar hech qachon aholi hayotini yaxshilashga, ya’ni yo‘llar, ko‘priklar yoki shu kabi inshootlar qurilishiga sarflanmagan. Mansabdar zulmi kundan-kun kuchayib borgan. Shikoyat qiluvchilarni hech kim tinglamagan”²², deb ta’rif bergan.

Shahar aholisining turmushi va xo‘jalik yuritishi tartibi hilma-hil, aholining asosiy tarkibi bo‘lgan hunarmandlar ishlab chiqarilgan mahsulotlar doimo bozorlarda o‘z haridorlariga ega bo‘lsa-da samarqandlik mehnatkashlarning turmushi oson kechmagan. Hokimiyat vakillari tomonidan zulmning kuchaytirilishi ularning ahvolini og‘irlashtirgan. Shahar hukumati daromadlarni oshirish maqsadida turli hil soliqlarni joriy etishgan. Shahar mehnatkashlari umumiy holatda 55 nafar turlicha soliqlar va to‘lovlarini to‘laganlar.

²² Мирза Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Масъул муҳаррир Чориев З.У. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2009. – Б. 159-161.

I.2. Buxoro amirligi davrida Samarqand bekligiga qarashli hududlarning siyosiy hayoti va ma'muriy boshqaruv tizimi.

Siyosiy tuzilishiga ko'ra Buxoro amirligi mutlaqo cheklanmagan hukmdor — amir tomonidan boshqarilgan. Amirlik o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.²³ Buxoro mamlakati 28 viloyatga bo'linar va ularni amir tayinlaydigan beklar boshqarar edi. Eng katta viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlardi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako'l, Chorjo'y, Qarshi, Kelif, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Xuzor, Qorategin, Boysun, Hisor, Dehnav, Qo'rg'on, Baljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz, Rushon, Samarqand, Miyonkol, Farob, Urmitan va Maschohlar kirar edi²⁴.

Buxoro amirligidagi bekliklar va tumanlarning ma'muriy — hududiy bo'linishi turlicha edi. Ularning ko'pchiligi o'ziga ko'plab qishloqlarni qamrab oladigan amlokliklarga bo'linar edi. Qadimdan 80 ta aholi punkti (qishlog'i) bo'lgan hududda tuman tashkil qilingan.²⁵

Miyonqol hududida Samarqand bekligining Ofarinkent va Yangiqo'rg'on Kattaqo'rg'on bekligining Payshanba tumanlari joylashgan edi. Bular dehqonchilik tumanlari bo'lib, aholisi ancha zinch hamda amirlikning siyosiy hayotida muhim o'rinn tutgan. Buxoro amirligining ba'zi bir bekliklaridagidan (Xatirchi Ziyovumin) farqli o'laroq, bu hudud tumanlarga bo'lib boshqarilgan. Tumanlarni beklar boshqarganlar.

Ofarinkent tumani ma'muriy jihatdan 3 ta amloklik, 26 ta daha va 139 ta qishloqdan tashkil topgan, XIX asrning 40 yillariga kelib Buxoro hukmdori amir

²³ Ўзбекистоннинг янги тарийхи. /Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида / К. 1. — Т.: Шарқ. 2000. -Б. 44.

²⁴ Вохидов Ш. Ўрта Осиё хонликларида давл&т бошқарувига доир. (XIX аср — XX асрнинг бошлари-Гулкстон. 2001. 65.

²⁵ Населенни пункты Бухарского Эмирата (конец XIX ♦ нач. XX к) // Материалы к исторической географии Средней Азии. -Т.: Университет 2001. -С. 4-5.

Nasrullo davrida Shoxob va Nag'mon Chaqmoq amlokliklaridan Dahbed amlokligi ajralib chiqqan.

Tuman amlokliklari quyidagi dahalarni o'z ichiga olgan:

Shoxob amlokligi: Chovka, Kumushkent, Tariqchi, Naymancha poyon, Karki, Qo'shxo'rg'on dahalarini o'z ichiga olib, 34 ta qishloqdan iborat bo'lган. Dahbed amlokligi: Dahbed, Jar, Qorateri, Marg'ilontepa, Xilachi, Mullaxo'ja, Darxon dahalarini o'z ichiga olib, 39 ta qishloqdan tashkil topgan.

Sirg'ali amlokligi: Hotamxo'ja, Shayxlar, Burlak, Qo'ng'iroq, Hazorbobo, Ko'ksoqol, Avaz Ali dahalarini o'z ichiga olib, 34 ta qishloqdan iborat bo'lган.

Nag'mon Chaqmod (Yangikent) amlokligi: Mavlum, Qarqarali, Sarka, Yangikent, Chorbog'tepa, Nayman dahalarini o'z ichiga olib, 32 ta qishloqdan iborat bo'lган.

Yangiqo'ton tumani 2 ta amloklik, 14 ta daha, 53 ta qishloq va 959 hovlidan iborat bo'lган.

Yangiqo'rgon amlokligi: Boybuta, Janub, Shimol, Qoraxitoy, Qatag'on, Xina, Qoraxo'ja dahalarini o'z ichiga olib, 24 ta qishloqdan tashkil topgan,

Odil amlokligi: Jarboshi, Shodimurak Mahalla, Sho'rtepa, Farhod Yabu, Qiyot, Odil, Qo'ng'iroq Dahalarni o'z ichiga olib, 29 ta qishloqdan iborat bo'lган.

Payshanba tumani G'azara, Novka, Jo'yi Shog'ar va Jo'yi Mug'ul amlokliklaridan iborat bo'lган. Tumanda 103 ta qishloq va 4600 ta hovli mavjud bo'lган, G'azara amlokligi 24 ta, Novka amlokligi 53 ta, Jo'yi Shog'ar za Jo'yi Mug'ul amlokliklari esa 26 ta qishloqni o'z ichiga olgan.

Ma'muriy boshqaruvda amlokliklarni amlokdlorlar, dahalarni aminlar (daha oqsoqollari), qishloqlarni esa qishloq oqsoqollari boshqarganlar. Endi tumanlarni boshqargan bekdan tortib to qishloq oqsoqoligacha bo'lган vazifadagi shaxslarni huquq va majburiyatlarini manbalar asosida ko'rib chiqamiz.

Beklar: o'z boshqaradigan hududlarida keng huquqlardan foydalanganlar. Ular qisman sud huquqidan ham foydalaniib, ba'zi bir hukmlarni tasdiqlaganlar. Xiroj to'lamaganlikda ayblanuvchilar uchun tayoq bilan savalash, jarima, qamoq va uy-

joy musodora qilinishi kabi jazolar qo'llanilgan. Jazolarning turlari bek tarafidan belgilangan.

Bekning qo'l ostida, bevosita uning nazoratida bir necha ma'muriy vazifalarni bajaruvchi shaxslar bo'lgan. Katta ta'sirga ega bo'lgan vazifador shaxs rais (muhtasib) hisoblangan. Rais shariat himoyachisi sanalib, uning vazifasi aholi tarafidan shariat qonunlarini to'g'ri bajarilishini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Undan tashqari rais bozor kunlari sotiladigan mahsulotlar va mollarga narxlarni e'lon qilgan. Rais to narxlarni e'lon qilmaguncha bozor ochilmagan.

Bekning yana bir yordamchisi qozi hisoblangan. U sud ishlarini olib borib, raisga ham yordam bergen. Barcha huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirgan. Qozi va raisdan tashqari mirshablar, darg'aboshilar bo'lib, ular ijtimoiy tartib va intizomni nazorat qilganlar. Undan tashqari sarkor (ish boshqaruvchi) mirzolar va xizmatkorlar mavjud bo'lgan.²⁶ Muhim masalalarni bek, rais, qozi birgalikda muhokama qilgan va oxirigacha yetkazgan. Agar bek almashsa, o'sha hududda amlokdorlar ham almashtirilgan. Ammo oqsoqol, mingboshi, ellikboshi saylanganligi tufayli ular hatolikka yo'l qo'ymasalar, umrining oxirigacha ham o'z vazifasida ishlash huquqiga ega bo'lgan. Har bir bek va amlokdorning yordamchisi sifatida yasovulboshi ihtiyyorida 10—12 navkari bo'lgan, Navkarlar aholi hisobiga yashaganlar hamda amlokdor va bekka yaqindan yordam bergenlar.²⁷

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi asosan, markaziy amir hokimiysi boshqaruvidan iborat edi. Amirlik viloyatlarga bo'linib boshqarilgan. Har bir viloyatni amir tamonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar, beklar boshqargan. Shuning uchun viloyat beklik, deb ham yuritilgan. Samarqand viloyatining amirlik tarkibidagi ma'muriy-boshqaruv tizimi quydag'i tarzda edi.

Samarqand bekligi ma'muriy-hududiy jihatdan tumanlarga bo'lingan. Manbalarda Samarqand bekligi beshta tumandan iborat ekanligi, jumladan, Abu

²⁶ Мирзаев К.М. Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарском ханстве. -Т.Л954, -С.

41

²⁷ Санаев И. Зиёвуддин тарихи. - Т.: Шарқ, 1995. —Б. 1д4.

Tohirxo'janing "Samariya" asarida Shovdor, Anhor, So'g'udi Kalon, Ofarinkent va Kobud tumanlari tilga olinadi. Shovdor tumani – deyiladi asarda,- Samarqand shaharining sharqiy tarafida bo'lib janubiy chegarasi tog' etaklarida. Sharq va shimol tarafidan zrafshonga tutashgan. Anxor tumani Samarqandning g'arbiy tarafida bo'lib uning janubiy chegarasi tog' etaklarigacha shimoliy tomoni Zarafshon Daryosi, g'arbiy cheti cho'l bilan chegaralangan. Sug'udu Kalon tumaniga Oqdaryoning o'ng Aliobod tumanigacha bo'lgan yerlar kirgan. Zarafshon ikki: Oqdaryo va Qoradaryo ajralgan joydagi orolning yuqori qismida joylashgan tuman – Ofarinkent deb atalgan. Zarafshon daryosining shimoldagi dashtsiz va suvsiz bo'lagi – Kobud tumani deb ataladi bu dashtlik bo'lak boshdan oyoq shimol tog'iga yondoshdir.

XIX asrning 1831-1832 yillarida Buxoro amrligiga sayohat qilgan ingliz Leytenant A. Byornis ham Samarqand viloyatining quyidagi tumanlari : Sheroz, Sug'd, Ofarinkent, Anhor va Shovdor Tumanlarini tilga olib o'tadi.

Ko'rinish turibdiki, Manbalarda tumanlarning nomlanishida farq bor. Shu o'rinda Samarqand viloyatining tarixiy va jug'rofiy holatini mahalliy manbalar asosida o'rganib chiqgan rus olimi V. Vyatkin ham quydag'i tumanlarning nomlarini keltirib o'tadi: Shovdor, Anhor, Ofarinkent, Kobud, Yar- Yayloq Sug'udu Kalon, Sheroz. Biroq Sheroz va Yar-yayloq tumanlari to'g'risida oz malumot keltirib o'tadi. Chunonchi, Sheroz (Amir Temur davrida asos solingan) Tumanining qachonga qadar mavjud bo'lganligi noaniq ekanligi, XVIII oxiri u manbalarda tilga olingan va mavjud bo'lganligi to'g'risida ma'lumot beradi. U, shuningdek, yar – Yayloq tumani ham ilgari mavjud bo'lganligini, Keyinroq esa Sanzar va O'sma kabi qishloqlar o'rnida bo'lganini qayd etadi. Darhaqiqat, yuqoridagi tumanlar borasidagi fikrlarni boshqa manbalar ham tasdiqlaydi.

Tumanlar, o'z navbatida, oqsaqollar tomonidan boshqarilgan va ular dorug'a deb ham atalgan. Oqsaqollar o'z tumanlarida bek buyrug'i ijrosini ta'minlab borgan. Ularning eng asosiy vazifasi, bek uchun soliq yig'ishdan iborat bo'lgan.

Manbalarda qayd etilishicha, tumanlar bir necha qishloqlardan iborad dahalarda bo'lingan. Tumanlarni amlokdorlar, dahalarni aminlar yoki daha oqsaqolli, qishloqlar esa qishloq oqasaqoli tomonidan boshqarilib, ular soliq to'lovlar yig'imini nazorat qilgan. Samarqand shahri – viloyatning asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi hisoblangan.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amrligi hayotining yuqori boshqaruv tizimidan tortib, aholi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatalar, aholining turmush tarsi, yer suvga egalik munosabatlari va umuman jamiyat xayotining barcha sohasi Islom dini va uning me'yorlari asosida tartibga solingan. Buxoro amrligiga tashrif buyurgan ingliz leytenant A. Byorns ham amrlikda boshqaruv tizimi Qur'oni Karimga asoslangan edi, deya tasdiqlagan edi.

O'rta asrlardan boshqa musulmon davlatlari singari, Buxoro amrligida ham, Islom dini xayotning barcha jabhalarida hukmon kuch hisoblangan. Aholi hayotidagi barcha muhim masalalar, xususan yerga egalik munosabatlaridan tortib, soliq, savdo, aholi kasb kori va turmush tarzidagi barcha qoida va me'yorlar to'liq shariat talabi ostida bo'lган. Shariat – Islom qonuni hayotning barcha jihatlarini tartibga solib turgan. Quyida bularning barchasi izohlanadi.

Aholi turmushining muhim masalalaridan biri yerga egalik munosabatlari hisoblangan. Xiva va Qo'qon xonliklari singari Buxoro Amrligida ham yer egaligining asosiy uch shakli mavjud edi: Davlat yerlari(mamlaka, amlok, podshohi), xususiy yerlar(mulk, Mulk- xurri-xollis) va Vaqf yerlaridan iborat edi. Oddiy xalq (Raiyat, fuqaro)ning yerga egalik huquqlari cheklangan bo'lib, bu ularning ijtimoiy sharoiti va imkoniyatining yo'qligida edi. Shariatga muvofiq, xususiy yerlar sotilgan va sotib olingan, sovg'a qilingan va merosiy o'tilgan. Davlat yerlarining xususiy yerlarga aylantrilishi dehqonlarning zodagonlarga bo'lga qaramligini oshirishga ta'sir etmay qolmadi.

Manbalarda suvga egalik qilish munosabatlari ham, qat’iy shaxsning xususiy daxlsizligidan kelib chiqib olib boriladi, deb takidlanadi. Yani, shariatga muvofiq, suv jamoa mulki xisoblanib uni sotish yoki sotib olish taqiqlangan bo’lsada, hukmron qatlam bu qoidaga etiborsiz bo’lgan xolda, undan o’z manfaatlari yo’lida boyish, oddiy fuqarolarni ezish manbasi sifatida ham foydalangan. Zodagonlik huquqidan foydalangan qatlamlar suvdan shaxsiy manfaatdorlik huquqi sifatida foydalanib, oddiy xalqning suvdan erkin foydalanishga yo’l berilmagan. Umuman, yuqori tabaqa vakillarining mulkiy jihatdan quyi qatlamdan ustun bo’lishi, ularning shaxsga egalik huquqlarini kengaytirib borgan. Ya’ni ularning qo’lida karvon saroylar, do’konlar, ustaxonalarining to’planib borishi bilan birgalikda, ularda faoliyat yuritgan hunarmandlar va mayda savdogarlar ham bu qatlamga qaram bo’lib borgan.

Bu davrda mulkchilik shaklaridan biri vaqf mulki hisoblangan. Vaqf xujjatlarini tahlil etish orqali, bu davrda ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyatdagi mavqeyi mulkiy xolati darajasi qay ahvolda bo’lganligi haqida tasavur hosil qilish mumkin. Jumladan, bir zodagon xo’jaligida qancha miqdorda yer mulklari, bog’rog’lari hunarmanchilik ustaxonalari bo’lganligi bilan birga, bu mulklardan imkoniyati cheklangan dehqon, hunarmand va qullarning ishlatilganligi va ularning holati to’g’risida xulosa chiqarishgan imkon beradi. Ayniqsa, Vaqf yerlarida ishlagan dehqonlarning ijtimoiy xolati to’g’risida xulosa chiqarish mumkin. Bu davr manbalarida shariat meyorlari oddiy fuqaro mehnati orqali zodagonlik huquqi manfaatini himoya etishga imkon bergenligini, qayd etadi.

Aholining ko’chmas mulk va ko’chma mulklar shaxsiy egalik huquqi sifatida shariat qonunlari bilan belgilab qo’yilgan. Har bir kishinining mehnati va xizmati orqali qo’lga kiritilgan mulk shariat nuqtai nazari bilan himoyalangan. Har qanday dastlabki mulk egasining rozilgisiz hech kimning qonuniy mulkiga aylanmagan. Birovning mulkini o’ziniki qilib olish gunoh sanalgan va mulk egasi rozilgisiz mulkning ikkinchi qo’lga o’tishi noqonuniy hisoblanib, ta’kidlangan.

Har bir qishloq va shahardagi mavjud jamoalarni umumiy qonun va me'yorlar, jamoat tartibi va odatlari birlashtirib turgan. Har bir xo'jalik mahalla jamoasiga birikkan va mavjud shariat tartib qoidalariiga amal qilgan. Mahalla yoki qishloqning barcha yuqori yoshdagi erkaklari har kuni tong saharda masjidga borib, namozda ishtirok etishi lozim bo'lgan. Ularning doimo masjidga borib turishi, ayniqsa, har juma jamoat namozida ishtirok etishlari kuzatib borilgan. Masjidga kelib-ketuvchilarni nazorat qilish ham maxsus mansabdagi shahs – rais zimmasida bo'lgan.

Jamoalarni oqsoqollar (oqsoqol, ellikboshi) boshqargan. Katta oqsoqollar jamoaning xo'jalik, jamoat va oilaviy ishlarini boshqargan. O'rta yoshdagilar va yoshlar ularga so'zsiz bo'ysungan, ularning maslahat va nasihatlariga amal qilgan, belgilangan odat va mavjud me'yorlarni buzishga hech qachon haddi sig'magan. Yoshi ulug' kishilarining atrofidagilarga bunday ta'siri jamoadagi turg'un qarashlar, urf – odat va marosimlar, ahloq me'yorlari mustahkamlab borgan. Ayniqsa, qishloqdagi umumiy hayot turg'un holatda edi. Bu yerdagi jamoa munosabatlari, shahardagiga nisbatan aholining xo'jalik faoliyati bilan, asosan yerdan foydalanish, suvdan foydalanish, chorvachilik va hakozolar bilan hususiyatlangan.

Jamiyatda belgilangan har qanday qoida va me'yorlar aholi ijtimoiy ishiga to'g'ri kelmasada, hech kim ularni inkor etmagan. Aholidan yig'ib olingan soliq – to'lovlar bunga misol bo'ladi. Manbalarda ta'kidlanishicha, maskur davrda davlat tamonidan aholidan olingan soliqlar (zakot, hiroj, juz'ya) ham diniy ahamiyat kasb etib, bular olloh yo'liga majburiy hayr-sadaqa (kambag'al, yetim-yesirlar foydasiga, muqaddas urushlar olib borish uchun va hakozo) sifatida olingan. Boshqa manbada ham, shariat tamonidan belgilangan ana shunday soliqlardan biri – zakot bo'lib, bu soliq 1/40 miqdorida turli hildagi mahsulotdan olingan; hiroj – yer solig'i 10 % miqdorida olingan; juz'ya – musulmon bo'limganlardan olingan. Bu soliq turi manbalarda kambag'allardan 12 dirham (bir dirhamdan oyiga), o'rta

hol kishilardan 24 dirham (oyiga ikki dirham), boylardan 48 dirham yiliga (yoki to'rt darhamdan oyiga) olingan. Xonlikda juz'ya solig'i gohida dirham o'rniga kumush tangada olinganligi aytildi.

Aholi hayotida diniy nuqtayi nazardan belgilangan ijtimoiy-me'yoriy munosabatlar aholi kasb-korida ham mujassam bo'lgan. Jumladan, bu hunarmandchilik kasbining ahloqiy me'yorlarini belgilab bergen risolada o'z ifodasini topgan edi. Risola – o'ziga hos ahloqiy-diniy qo'llanma bo'lib, ustadan o'rnatilgan odat va an'analarga rioya etishni talab qilgan. Hunarmand ham bu majburiyatni buzishga haddi sig'magan, chunki biror bir joriy etilgan yangilik ana shunday qoida va ruhoniylar qarshiligiga duch kelish mumkin edi. Tadqiqotchilardan birining fikricha, risolada buyurilgan ijtimoiy-me'yoriy husisiyatga ega bo'lgan yo'riqnomalarga, misol uchun, buyurtmachi va haridorlarga haqqoniy munosabatda bo'lish mumkinligi, shogird va hunarmand ustaga bo'lgan munosabat, "Sabrli va adolatli bo'lish" kabilar kirgan.

Zarafshon okrugida bo'lган G.Grebenkin ma'lumotlariga ko'ra, islom qoidalari ko'ra, barcha aholi fuqarolik munosabatlarida teng hisoblansada, zodagonlar guruhini (amloktdor, zakotchi, amin va hakozo) tashkil etganlar. Faqat o'z doiralarida ijtimoiy munosabatlarni olib borgan. Shahar va qishloq, mahallalarda zodagon kishilar yonida kambag'al qatlamlarga mansub kishilar yashagan. Qishloq jamoasida shunday qonun hukmron ediki, yuqori mavqe'li, boy zodagonga quyi qatlam aholi vakillari bo'ysunishi, itoat etishi, tabiiy hol hisoblangan. Islom amallari ta'sirining kuchayib borishi esa bu ijtimoiy tartibni mustahkamlagan. Agar dehqon oilasida musibat yoki hursandchilik bo'lib qolsa, bunda zodagon ham ishtirok etmasdan qolmagan, u go'yoki dehqonga hamdardlik yoki hursandchilik bildirgan. Bunday munosabatlar zodagonlar va ruhoniy vakillar mavqeini oshirib borgan.

Jamiyat bo'g'ini hisoblangan oilada ham islom dini ta'siri jamoat tartibi va qoidalari hukmron edi. Buxoxo amirligi aholisining turmush tarzini o'rgangan rus

ma'muri V.Halifkinning qayd etishicha, 7-8 yoshdan boshlab, har qanday oila a'zosining harakati, o'y-fikri, hissiyotlari mavjud o'rnatilgan qoidalardan chetga chiqmasligi lozim edi. Erkak oila boshlig'i hisoblangan va barcha masalalar u orqali hal qilingan. Ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum etilgan, ya'ni ijtimoiy huquqsiz hisoblangan. Ayollar faqat uyda o'tirib, ro'zg'or yumushlarini bajarishi, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi lozim edi. Ayol kishining jamoat orasida, ko'cha-ko'yda ochiq yuz bilan yurishi, begonalar bilan munosabatda bo'lisci man etilgan, deyiladi boshqa manbalarda. Shariatga muvofiq, ayollar masjidga bormasligi, lekin uyda diniy amallarni bajarishi lozim bo'lgan. Jamoat qoidalardan chetga chiqqan, yengiltaklik qilgan, nikohsiz aloqalarda bo'lgan ayollar o'limga mahkum etilgan. Oiladagi bunday munosabatlar barqaror odatlar va ahloqiy me'yorlar bilan mustahkamlab borilgan.

Zarafshon vohasida bo'lgan V.Radlov o'z xotiralarida, aholining ko'chmanchilik bilan turmush kechirayotgan xalqlari (qirg'iz, qoraqalpoq) o'z ijtimoiy, ahloqiy me'yorlariga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday belgilangan me'yorlar ularning asrlardan beri saqlanib kelgan odatlari bilan uyg'un bo'lgan. Albatta, ular ham islam tarafдорлари hisoblansada, diniy amallardan ko'ra o'z odatlariga rioya etishni muhim hisoblagan. Shuning uchun, ko'p hollarda ular bilan mo'llalar o'rtasida kelishmovchilik bo'lib turgan. Ya'ni mo'llalar ularni ba'zi bir diniy amallarga etiborsiz bo'lganligi uchun ham sadoqatsiz deb hisoblaganlar.

Jamiyat hayotiy me'yorlari har bir shahsning huquq va majburiyatlariga tegishli ahloqiy tamoillarda namoyon bo'lgan. Ayniqla, ijtimoiy hayotning barcha tamonlari, jumladan, kishilar o'rtasidagi munosabatlar, turmush tarzi, jamiyat mafkurasingning asosi ham to'laligicha shariat talabida bo'lgan. Shariatning qonun-qoidalari musulmonlarning muqaddas diniy kitobi Qur'oni Karimda belgilab qo'yilgan edi. Shariatning kuchli ta'siri natijasida hatto boshqaruv tizimida ham yangi me'yorlarning yaratilishi taqiqlangan. Ezgulik – bu mavjud an'analar,

muayyan islom amallariga qarshilik ko'rsatmay, ezgulik va bularning barchasiga qarshilik ko'rsatadi, degan g'oya bilan jamiyat tartib-qoidalari mustahkamlab borilgan. Aynan mana shu nuqtayi nazardan, jamiyatda odamlar harakati baholangan va shubhasiz kimdir mavjud an'analarni buzishga yoki ularga qarshilik ko'rsatishga haddi sig'magan. O'rnatilgan tartib-qoidalalar doirasida tashqaridagi barcha narsalar g'ayritabiyy hisoblangan. Musulmonlik huquqi gunoh va jinoyat o'rtasidagi farqni belgilab bergan. Masalan, biron kishi diniy toat-ibodatni bajarmay, e'tiqoddan yuz o'girsa, unda u nafaqat gunoh balki, jinoyat qilgan ham hisoblanadi va ayniqsa, agar kimdir davlat tartibi buzsa, bu ham islomga qarshi jinoyat qilgan hisoblanadi. Shuning uchun ham, aholi "hamma shunday yashash kerakki, hatto hech kimga kerak bo'limgan tirikchilik mayda-juydalari ham, go'yoki atrofdagilar uchun, ulug' shariat talabi va ahloq qoidalari bilan yo'g'rilgan taasurot uyg'otish lozim" degan qarashlar ostida hayot kechirgan.

Amlokdorlar: amlokliklarni bashqarish amlokdorlarga yuklatilgan. Ma'muriy boshqaruvda asosiy o'rinni egallagan amlokdorlar bek tomonidan tayinlanganlar. Ularning asosiy majburiyati o'z amlokligi aholisidan xirojni yig'ib olish va uni bekka taqdim qilishdan iborat bo'lgan. Ular yillik hosilning hisobini yiqqanlar. Amlokdorlar xiroj yig'imi bilan bog'liq bo'lgan sud ishlarini hal qilish hamda aybdorlarni kaltak bilan jazolash, ularga jarima solish huquqiga ega bo'lganlar.²⁸

V. V. Bartold Buxoro amirligida amlokdorlar ma'muriy boshharuvga ega bo'lganlar,bekliklar amlokliklarga bo'lingan, beklar ruslarning gubernatoriga amlokdorlar esa uyezd boshliqlariga to'g'ri kelgan. — deydi. I.I.Geyer esa bunga qo'shilmasdan, amlokdorlar ma'muriy boshqaruvga ega bo'limganlar, ular faqat hosilni belgilash bilan shug'ullanganlar. — degan fikrni keltiradi.

Bu yerda Geyerning fikri haqiqatga yaqinroqdir, chunki manbalardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Miyonkol tumanlaridagi amlokdorlar ma'muriy

²⁸ Мирзасв К.М Амлякомл форма феодальной земельной собственности в Бухарском ханстве. -Т.,1954, -C. 42.

boshqaruvga ega bo'lmasdan, ular faqat soliqqa tortilgan hosilning hisobini belgilash bilan shug'ullanganlar.

K.M.Mirzayev amlokdorlar har yili bek tarafidan almashtirilaverganligidan o'z amlokliklarining chegarasini ham bilmaganlar deb yozadi.²⁹ Bu fikrga to'liq qo'shib bo'lmaydi, chunki amlokdorlar ko'pincha mahalliy xalq orasidan tayinlanganlar va ular o'z amlokliklarining chegaralarini aniq bilganlar.

Deyarli barcha amlokdorlarning mirzalari bo'lib, ular amlokdorlarning ko'rganlarini to'g'ridan — to'g'ri yozib borganlar.

Ma'muriy boshqaruvda amlokdorlardan keyingi o'rinni aminlar egallahsgan va ular amlokdorlarning yordamchilari hisoblangan.

Aminlar (daha oqsoqollari): Aminlik vazifasi Buxoro amirligining hamma bekliklarida mavjud bo'lмаган, Aminlikka amlokdorlar tarafidan amloklikning tub, mahalliy aholisi ichidan, avvallari qishloq oqsoqoli vazifasida turgan shaxslar tayinlangan. Ular to'g'ridan-to'g'ri amlokdorlar xohishining ijrochilari sifatida xiroj yig'imida va aholini nazorat qilishda yaqin yordamchilari bo'lib hisoblangailar. Daha oqsoqollari irrigatsiya tarmoqlarini nazorat qilganlar. Agar ariqlarni ta'mirlash yoki yig'ilgan suvlarni tushirib yuborish zarurati paydo bo'lsa, ular qishloq oqsoqollariga yetarli ishchilarni ishga jalb etishga buyruq bergenlar. Agar ariqlarni ta'mirlash yoki suvlarni taqsimlash uchun qo'shni dahalardan yordam kerak bo'lsa, unda daha oqsoqoli o'zidan yuqori lavozimdag'i shaxs, ya'ni amlokdorga murojaat etgan.

Daha oqsoqollari o'zining dahasiga tegishli bo'lган qishloqlar, hovlilar, qo'sh yerlar miqdori hamda tanob va xiroj yerlar hisobi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak bo'lган. Ular o'z dahasi hududidagi mulklarning qanaqa mulkligi va kim bu mulkdan qanday huquq bilan foydalanayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham aniq qilib qo'yishlari kerak bo'lган. Ular qishloq oqsoqollarining yozma hisobot va ro'yxatlarini tekshirganlar hamda bu

²⁹ Мирзасв К.М Амлякомл форма феодальной земельной собственности в Бухарском ханстве. -Т.,1954, -C. 42.

hisobotlarning to'g'riliqi uchun boshlari bilan javob berganlar. Xiroj mahsulotlari hosilini belgilashda daha oqsoqollari aynan ishtirok etishlari shart bo'lган. Aminlarning qo'l ostida bir necha qishloq oqsoqollari bo'lган.

Oqsoqollar — har bir qishloqda mavjud bo'lib, ba'zida bir necha kichik qishloqlar bir oqsoqolning qo'l ostida bo'lган. Oqsoqollik vazifasiga shaxslar saylov asosida saylanganlar. Saylovlar yiliga bir marta o'tkazilgan. Albatta oqsoqollikka qishloqning ko'zga ko'ringan eng obro'li kishisi saylangan, Saylangan oqsoqol amlokdorga tanitilgan. Amlokdor saylovlarini tasdiqlagan.³⁰ Buxoro amirligining aksariyat bekliklarida oqsoqollarni saylash va ularni indan olib tashlashga amlokdorning huquqi bo'lган. Ularni ishdan olib tashlash asosan xiroj yig'imini noto'g'ri olib borish aybi bilan bo'lган.

Qishloq aholisi oqsoqollar tomonidan uyma—uy, nomma — nom ro'yxatga olingan. Yana alohida daftarga qishloqda yashovchining yeri shu qishloqdamni yoki boshqa qishloqdaligi aniq yozilgan.

Oqsoqollar kapsan, tanobona va qo'sh puli soliqlarini tuzib chiqqanlar. Ular har bir yer egasining alohida qancha yeri va mahsuloti borligi, objuvoz va tegirmonlar hamda boshqa barcha daromad manbalaridan tushumlar ro'yxatini tuzganlar.

Oqsoqollar o'z hududlariga kelgan nazoratchilarga yig'ib olingan hosildan xiroj belgilashlariga mas'ul shaxs bo'lishgan hamda aholiga qaysi mahsulotdan qancha soliq belgilanganligini e'lon qilganlar. Hosil yig'ishtirib olingandan so'ng ular soliqlarni yiqqanlar.

Tilga olingan vazifalardagi shaxslardan tashqari bekliklar va tumanlarda maxsus vazifalarni bajaruvchi shaxslar — miroblar, darg'alar va zakotchilar tayin etilgan,

Miroblar: suvning taqsimlanishi va undan to'g'ri foydalanish, shuningdek, irrigasiya tarmoqlarining yaroqliliginiz nazorat qilganlar. Ularning yerdamchilari ariq oqsoqollari hisoblangan.

³⁰ Соболев Л.Н. Съеденид о подетях Зеравшанского округа//Турк. сб. -СПБ., 1873. Т. 90. -С. 35&-360.

Darg’alar; amlokdlarning qo’l ostida bo’lib, ikki yoki uch kishini tashkil etgan. Ular amlok yerlarda yillik yetishtirilgan hosilning hisobi tug’risidagi ma’lumotlarni yiqqanlar, g’alla yig’im—terim ishlarini, xirmondan g’alla tashib ketilmasligini nazorat qilganlar. Tozalangan g’alla ular tarafidan xirmonning o’zida shaxsan muhrlangan. Bundan tashqari ular amlokdlarga g’allaning yakuniy hisobini olishida hamda qancha g’alla xazinaga borshshshi hisoblashida ishtirok etganlar.

Zakotchi: beklarning yoki amlokdlarning qo’l ostidagi shaxs, ba’zida ular to’g’ridan—to’g’ri markaziy hokimiyat tomonidan ham tayinlanganlar. Ular zakot yig’ish ishlari bilan mashg’ul bo’lganlar. Zakot faqat chorvadan va bozorlarda sotiladigan mollardan olnngan. Shuning uchun zakotchilarning turi ikki xil bo’lgan: biri doimiy ravishda shaharda bo’lib, u yerga olib kelinadigan mollar hamda beklik yoki tuman hududidan olib o’tiladigan mollardan zakot yiqqanlar. Ikkinchisi esa amloklik yoki tumandagi chorvaning sonini aniqlab ularning egalaridan zakot yiqqanlar.³¹ Xullas, bekdan tortib to qishloq oqsoqoligacha bo’lgan vazifadagi shaxslar amirdan hech qanday maosh olmaganlar. Bu barcha amaldorlar asosiy ishlab chiqaruvchilar, dehqonlarning hisobiga kun kechirishgan.

Shunday qilib, Miyonkolning tarixiy —geografik tavsifi va uning ma’muriy hududiy tuzilishi to’g’risida ma’lumot beruvchi manbalarga tayanib quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchidan, Miyonkol Zarafshon daryosining irmoqlari Oqdaryo va Qoradaryo oraligida, vodiynint markaziy qismida joylashib, manbalarda uning aholisi zich, geografik qulay, hosildor tuproqli, suv bilan yaxshi ta’minlangan hududi sifatida tilga olingan.

Ikkinchidan, ba’zi bir manbalarda Miyonkolga noto’g’ri geografik tavsiflar berilgan, ya’ni Miyonkol hududidan tashqaridagi ba’zi bir shaharlarni Miyonkolga tegishli deb ma’lumotlar berilgan.

³¹ Мкрзаева К.М. Аиляковля форма феодальной -«мельной собственности в Бухарском ханстве. -Т.,1954. -С. 44.

Uchinchidon, rus mualliflarining ko'pchiligi Miyonkolni nafahat Zarafshon vodiysining, balki butun Buxoro amirligining aholisi zich, geografik qulay, hosildor tuproqli, dehqonchilik madaniyati yuksak rivojlangan boy hududi sifatida ta'riflaydilar.

To'rtinchidan, Miyonkol tumanlarining mahalliy boshqaruvi Buxoro amirligining ba'zi bir bekliklaridagidan farq qilgan. Tumanlar boshida beklar turib, ular ma'muriy boshliq bo'lganlar. Tumanlarning amlokliklarini esa amlok dorlar boshqarganlar. Ular tuman beklariga tobe holda, ma'muriy boshqaruvda ijrochi bo'lganlar.

Xullas, Rossiya bosqiniga qadar Samarqand va Kattaqo'rg'on bekliklari tasarrufida bo'lgan Miyonkol hududi tumanlarga, tumanlar amlokliklarga, amlokliklar esa dahalarga bo'lib boshqarilgan.

II.BOB Buxoro amirligi davrida Samarqandning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayoti.

II.1. Buxoro amirligi davrida Samarqandning ijtimoiy iqtisodiy hayoti.

XIX asr birinchi yarmidagi Samarqand shahri iqtisodiyotini ta’riflar ekanmiz avvalo, bu yerda iqtisodiy munosabatlarda eski o’rta asrlarga oid iqtisodiy munosabatlar saqlanib qolganligini va ishlab chiqarish sohasida an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustun bo‘lganligini ta’kidlashimiz zarur. Shahar iqtisodiy hayotida bir nechta sohalar o‘rin olgan edi. Dastlab albatta, hunarmandchilik va uning tarmoqlari, ikkinchidan, shahar aholisining turmushida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish, uchinchidan esa, savdo munosabatlari. Mana shu sohalar tahlili asosida shahar iqtisodiy hayotini tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Samarqand o‘zining asosiy qiyofasi ko‘ra rivojlangan o‘rta asr tipidagi shahar hisoblangan. Bunga qurilish ob’ektlari, aholi turmush tarzi, shaharning o‘zida ko‘plab yirik vaqf mulkclarining mujassamligi bundan dalolat beradi. Shaharda nafaqat savdo qizg‘in taraqqiy etgan, balki ta’lim ham. Bunda madrasalar asosiy ro’l o‘ynagan. Umumiy qilib aytildigan bo‘lsa. XIX asr birinchi yarmidan oldingi davrlarda o‘zaro urushlar va talonchiliklar natijasida vayron bo‘lgan shaharning o‘rganilayotgan davrda hukm surgan nisbatan barqaror siyosiy vaziyat sharoitida iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy mavqeい asta-sekinlik bilan tiklanib, yangicha ahamiyat kasb etib borganligidan dalolat beradi.

XIX asr birinchi yarmiga qadar Samarqand shahar atrofidagi aholi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shahar aholisi asosiy qismi hunarmandchilik, savdo bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu davrda shahar O‘rta Osiyoning yirik hunarmandchilik rivojlangan markazlaridan biri hisoblangan. Masalan, XIX asr o‘rtalarida shaharda 681 ta to’quvchilik, 200 ta egarchilik, 40 qog‘oz va qog‘oz buyumlar tayyorlovchi, 36 ta temirga ishlov beruvchi, 34 ta ipak buyumlarni tayyorlovchi, 30 teri mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, 15 ta ipak

yigiruvchi, 15 ta bo'yovchi ustaxonalar faoliyat yuritganligi, rasmiy manbalarda aks etgan.

Ko'rinish turganidek to'quvchilik eng keng rivojlangan soha bo'lgan. Darhaqiqat, samarqandlik hunarmandlar ipak, yarim ipak va paxta matolarning turli hillarini tayyorlashgan. Bulardan alacha, xosa (yupqa yarim ipak mato), qalami (paxta matoning turi), chit, kanaviz, bo'z, beqasam, tivitli salla, ipak va yarim ipak gilamlar, do'ppilar va h.k. Ta'kidlash joizki hunarmandchilikning to'qimachilik yo'nalishida mahsulot turining ko'pligi va ushbu soha mahsulotlariga bo'lgan talab barcha jamiyatlarda ham katta bo'lgan. Ayniqsa, paxta va shoyi homashyosi ko'p yetishtiriladigan O'rta Osiyo, shu jumladan, Samarqandda ham ushbu hunar sohasi keng taraqqiy etishi tabiiy jarayon edi. Lekin, biz shu jihatiga ham e'tibor qaratishimiz kerakki, Samarqandda yetishtirilgan ba'zi to'qimachilik mahsulotlari nafaqt mintaqada, balki boshqa davlatlarda ham katta talabga ega edi. Misol uchun, "Novoe vremya" gazetasi muhbirining bergen xabarnomasida 1878 yili Toshkentda ochilgan Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoati ko'rgazmasiga "Samarqanddan ko'plab sifatli, rang-barang shoyilar jo'natilib, bu matolar Buxoro va Turkiston o'lkasining ko'pgina shaharlarida tayyorlangan to'qimachilik mahsulotlari bilan raqobatlashadi", deyldigan.

O.A.Suxarevaning guvohlik berishicha alacha asli samarqandlik hunarmandlarning mahsuloti bo'lib, ularni to'qish bilan asosan shaharning eng ko'p sonli millati vakillari tojiklar shug'ullanishgan³². Ayrim ma'lumotlarga ko'ra bu hunar sohiblari Buxorodan, boshqa ma'lumotlarga ko'ra Xujanddan ko'chirib keltirilgan ekan. Yana O.A.Suxarevaning ma'lumot berishicha Yomini va Zomini deb nomlanuvchi qo'shni guzarlarda yashovchi o'zbeklar va tojiklar qalami deb nomlanuvchi mahalliy ipdan to'qilgan, odatda ko'k va oq chiziqlarga ega bo'lgan matoni to'qish bilan shug'ullanganlar. Ushbu guzarlar aholisining bir guruhi

³² Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 18.

Yomdan ikkinchisi Zomindan ko‘chib kelganlar bo‘lgan.

P.I.Pashinoni ma’lumot berishicha Turkiston hunarmandchilik ishlab chiqarishida uyda bajaruvchi ishchilar mehnatidan ko‘p foydalanilgan, “... qog‘oz ishlab chiqarishida bir sanoatchi o‘ziga ma’lum oilalarning biriga paxtani tozalash, boshqasiga – yigirish, uchinchisiga – tikish, to‘rtinchisiga buyash va h.q. ishlarni tarqatgan. Bu esa o‘z o‘rnida undan ustaxonalar uchun joy tayyorlash, ustachilik dastgohlarini sotib olish, ishchilarni ishlamagan vaqtiga po‘l to‘lash majburiyatidan halos etgan...”.

Shunga o‘xshash holat Samarcandda ham ko‘zatilgan. Ba’zi hollarda mehnatning katta qismi ayollar va bolalar zimmasiga tushgan. Ular paxtani tozalashgan, matolarga ishlov berishgan, iplarni o‘rashgan va h.k. Zarafshon okrugida ipak ip asosan “tojik va eroni ayollar charh yordamida ishlab chiqarganlar, o‘zbek va qirg‘iz ayollari esa urchuq yordamida. Bir ayol bir yilda mazkur uskunalar yordamida 2 dan 4 pudgacha ipak yoki yungdan ip yigirishi mumkin edi”. Ko‘pchilik ayollar mazkur mahsulotlarni o‘z ehtiyoji hamda sotuvga chiqarish uchun ham ishlab chiqarganlar. Shunga qaramasdan ko‘pgina hunarmandlar va kasanachilarning oilalari moliyaviy jihatdan qiyin ahvolda bo‘lib, kam daromad hisobiga kun kechirganlar. Bunga barcha to‘quvchilarning do‘konlari yo‘qligi va o‘z mahsulotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi sabab bo‘lgan. Ko‘pchilik to‘quvchi hunarmandlar o‘z mahsulotlarini olib-sotuvchilar yordamida sotishgan. Bunda ular mahsulotni 30 % arzon narhda pullashga majbur bo‘lishgan. Bu holat to‘quvchilarning o‘zlarida ishlab chiqarishdan oldin mablag‘ mavjud bo‘lmagan holatlarda olib-sotuvchilardan pul olishga va olgan pulga mahsulotni arzon narhda berishga majbur bo‘lishgan³³.

XIX asr birinchi yarmida Samarcandda adres to‘quvchi 63 ta to‘quvchilik dastgohi va 41 ta kanaviz to‘quvchi dastgohlar bo‘lib, ular qirq besh nafar kishining qo‘lida to‘plangan edi. Kanaviz ishlab chiqarish bilan o‘zbeklar va

³³ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С.

tojiklardan tashqari samarqandlik yahudiylarning bir qismi ham shug‘ullanganlar³⁴. Umuman olganda, Samarqandda ishlab chiqarish mayda hunarmandchilik ishlab chiqarishi xarakterida edi.

Tikuvchilik bilan asosan erkaklar shug‘ullanishgan. Samarqandda alohida tikuvchilik dastgohlarida bir nechta ustalar faoliyat yuritadigan qator ustaxonlar mavjud bo‘lib, ularda “... talabgir xalatlar, salsa va belqarslarga ishlatiladigan ... faqat maxsus harir va sifatli matolar tayyorlangan”.

Arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, “Samarqandda maxsus ipak yoki yungni tozolovchi ustaxonalar kam bo‘lgan. CHunki tozalangan ipak yoki yungga ehtiyoji bo‘lgan mahalliy aholi ularni sotib olib o‘zları uylarida tozalaganlar. Bu hunar bilan maxsus shug‘ullanuvchilar tikuvchilar uchun buyurtma asosida ishlaganlar va kamdan-kam holatlarda tozalangan yung yoki shu kabilarni bozorga olib chiqqanlar”.

Tuquvchilik sanoati asosan mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan mahsulotlarga qarab turlarga ajratilgan. Shunday sohalardan biri bu – ipakchilik va ipakdan mahsulotlar tayyorlash edi. XIX asr birinchi yarmida ipak mahsulotlarini etishtirish bilan 400 ga yaqin xo‘jalik shug‘ullanganligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Har bir xo‘jalik 5 puddan 1,5 pudgacha mahsulotni bozorga olib chiqishgan³⁵. Shaharga ipak homashyosi qo’shni hududlardan ham olib kelingan.

Samarqandda ipakga ishlov berishda pichoqli quldan yasaluvchi uskunadan foydalilanilgan. Ko‘pchilik hunarmandlar ipakga ishlov beruvchi uskunani o‘zları yasashgan. Ipakni o‘zidan samarqandlik hunarmandlar bir necha hil mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. O‘z vaqtida Samarqand o‘lkadagi yirik savdo mahsulotlarni etishtiruvchi va uning bozorlarida amirlikning yirik ipak mahsulotlari savdosi amalga oshirilgan. Ipak matolardan asosan kanaus, yarim ipak matolardan bekasam va adres tayyorlangan.

³⁴ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 21.

³⁵ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 19.

XIX asr birinchi yarmida Samarqandda matolar tayyorlash bilan bir qatorda matolarga buyoq berish sohasi ham yaxshi taraqqiy etgan. Buyoqchilik ishi bilan alohida ustalar shug‘ullanishgan. Samarqandda maxsus kuk rangli buyoqlar tayyorlangan. Yil davomida buyoq ishlab chiqarish shug‘ullanuvchi maxsus do‘konlar ham mavjud bo‘lgan. Umuman olganda buyoq tayyorlash bilan alohida usta va buyash bilan alohida ustalar shug‘ullanishgan. Buyoqchi ustaxonasida doimo buyoqlar to‘la chanlar bo‘lib, buyurtmachini oldida mato buyalgan va qurutilmagan holda egasiga qaytarib berilgan³⁶. Buyoq sifati va mato xajmiga qarab mehnat haqi olingan. Buyoqning sifatiga qarab 2,5 funt (1 funt 570 grammga teng) matoni buyash 40 dan 60 tiyingacha baholangan.

XIX asrda kubli ipak buyash bilan asosan mahalliy samarqandlik yahudiylar shug‘ullanganligini ta’kidlanadi³⁷. Samarqandlik ustalar buyoqlarning turli ranglarini tayyorlay olganlar. YAhudiyalar nil buyog‘ini tayyorlash bilan mashhur bo‘lgan.

SHaharda metallga ishlov berish hunarmandchilikning asosiy sohalari hisoblangan³⁸. Urush vaqtlarida mazkur soha kishilari harbiy aslahar ishlab chiqarishga, boshqa vaqtarda turli metall buyumlar: pichoq, duradgorlik va ustachilik asboblarini va shu kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Samarqandlik ustalar mis, jez, chuyan, temir va turli qorishmalardan mahsulotlar tayyorlashgan.

Temirchilikning chuyanga ishlov berish sohasida o‘ziga xos maktab shakllangan bo‘lib. Ular o‘zlarining metallga ishlov berish texnikasiga ega edilar. CHuyandan asosan qozon, undan tashqari xo‘jalik uchun zarur bo‘lgan buyumlar va mehnat qurollarini tayyorlashgan.

Hunarlearning ayrim turlari muayyan ixtisoslashuvga erishgan. Temirchilar odatda bir necha hil mahsulotlarni ishlab chiarishga ixtisoslashgan: ba’zilari

³⁶ О некоторых технических производствах в Туркестанском крае. “Русский Туркестан”. Вып. 2. – С. 211.

³⁷ Кипричников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов в самаркандской области//Туркестанский сборник. – Ташкент, 1909. Т.527. – С.153.

³⁸ Иванов П.П. К истории развития горного производства в Средней Азии. – М.-Л., 1932. – С. 64-65.

faqatgina ot va eshaklar uchun taqalar yasagan, boshqalari faqat tokarlik va chilangarlik asboblarini yasaganlar. Temir buyumlarning katta qismi Rossiyadan keltirilgan temirdan yasalgan.

N.A.Kirpichnikov temirchilik mahsulotlarini tasniflar ekan ularni uch guruhga ajratadi:

1. Darvoza zulfaklari, mix, taqa, yugan, arava g‘ildiriklari uchun halqalar, kuraklar yasash.

2. Toshtaroshlar uchun dastgohlar, cho‘kichlar, o‘roq va ketmonlar, duradgorlar uchun asboblar tayyorlash.

3. Pichoq, qaychi, arra, bigiz va shunga o‘xshash mayda asboblar temirchiligi.

Samarqand hunarlari orasida terichilar ham katta o‘rinni egallaganlar. Ular tomonidan tayyorlanadigan mahsulotlar yuqori sifati bilan ajralib turgan. Teriga ishlov berish sohasi hududni Rossiya imperiyasi hududiga qushib olinguniga qadar hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida qaralar edi. Chunki, teri va undan tayyorlanadigan mahsulotlar aholi turmushida muhim o‘rin tutgan. Qolaversa mazkur soha mahsulotlari hudud va umuman mintaqaviy savdoda ham asosiy tovar vazifasini o‘tagan. Shaharda alohida terichilar istiqomat qiluvchi mahalla ham mavjud bo‘lib, u Charmgaron deb nomlangan³⁹.

Samarqandda boshqa hunarlar qatorida qog‘oz ishlab chiqarish ham rivojlangan. XV – XIX asrlarda samarqand qog‘oz ishlab chiqarishning yirik markazi hisoblangan. Qog‘oz tayyorlashda ishlatilgan nasha o‘simgidan tayyorlangan kanop iplar homashyo bo‘lib xizmat qilgan. Ular tarqatilgan, taroshlangan va kecha davomida ohakli suvga botirib qo‘yilgan. Shu tariqa kamda bir hafta davomida homashyoga ishlov berilgan va keyin qog‘oz tayyorlangan. Samarqand qog‘izi turli ranglarda tayyorlangan. P.P.Ivanovning ma’lumot berishicha shaharda yozuv qog‘ozini ishlab chiqarish keng rivojlangan⁴⁰.

Qog‘oz buyumlarini yasovchi ustaxonalarda qog‘oz homashyosini alohida va

³⁹ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 7.

⁴⁰ Иванов П.П. К истории развития горного производства в Средней Азии. – М.-Л., 1932. – С. 64.

yozuv qog‘ozini alohida tayyorlashgan. Ba’zi hollarda esa mazkur mahsulotlarni alohida ustaxonalarda tayyorlab sotuvga chiqarishgan. Qog‘ozga yakuniy ishlovnii maxsus mutaxassis – “murakashlar” amalga oshirganlar. 1869 yilda Samarqandda qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustaxonalar soni 16 ta bo‘lgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshida Samarqandda qog‘oz sanoati inqirozni boshdan kechirgan. Bunga sabab, birinchidan Buxoro amirligidagi o‘zaro urushlar, ko‘chmanchi xalqlarning hujumlari natijasida yuz bergen talon-tarojlardan bezgan xalqning nisbatan tinch o‘lkalarga ko‘chib ketishi hamda qog‘ozsoz ustalarning katta qismi Qo‘qon xonligi hududiga borib makon topishi. Ikkinchidan, XIX asrda Rossiyadan katta miqdorda qog‘oz mahsulotlarning olib kelinishi mahalliy qog‘ozsozlarning inqiroziga ham ma’lum qadar hissa qo‘shgan. Tadqiqotchilarning fikricha O‘zR FA SHarqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan XIX asrga oid juda ko‘plab qo‘lyozmalar ichida birorta ham Samarqand qog‘oziga bitilganligi qayd qilinmagan⁴¹⁴¹. Bu holat XIX asr boshida Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish to‘xtab qolganligidan dalolat beradi. Yana bir m’lumotda «XIX asr boshlarida Samarqand qog‘izi tayyorlash nihoyasiga etgan edi. Shu sababli qog‘oz ustaxonlari o‘rnashgan joylar boshdan-oyoq un tegirmonlari va charxpalaklarga ko‘milib ketgan edi», keltiriladi. Bu davrda o‘zaro feodal kurashlar, tinimsiz talonchiliklar, savdo yo‘llarining havfsiz emasligi natijasida savdoning susayishi, o‘zaro kurashlar davrida soliqlarning oshib ketishi natijasida Samarqandda birgina qog‘oz ishlab chiqarish emas, balki ko‘pgina ishlab chiqarish sohalarida inqiroz ko‘zatiladi.

A.Vamberining fikricha Samarqand qog‘ozi «Yangi ipakdan tayyorlangan...»⁴², O‘rta Osiyo bo‘ylab 1866 yilda sayohat qilgan P.I.Pashino fikricha esa qog‘oz paxtadan tayyorlangan, A.Semyonov qog‘oz tayyorlashda eski latta va paxta tolalari, ipak va kanop chiqitlari ham qo‘llanilgan degan fikrni ilgari suradi. Ta’kidlash joizki har qanday mahsulot tayyorlanganda atrof-muhitda

⁴¹ Ҳабибуллаев Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш. – Т.: Фан, 1992. – Б. 10.

⁴² Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1855. – Б. 211.

mavjud bo‘lgan xom ashyodan keng foydalanilgan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki qog‘oz tayyorlashda XIX asr samarqandlik hunarmandlar asosan kanop, qamish, paxta, zig‘ir tolasi va ipakdan keng foydalanishgan⁴³, degan fikr o‘rinlidir.

Samarqand qog‘ozi suvsimon o‘zining maxsus belgisiga ega bo‘lgan. Mazkur belgi XVI asrda usta Mir Ibroximning o‘ziga xos muhri bo‘lgan. Bu belgi sunnigi paytlargacha ham Samarqand qog‘ozining belgisi sifatida saqlanib qolgan va “Mir-Ibroxim” deb atalgan⁴⁴.

Samarqand qog‘ozi tayyorlangan xom ashyosiga ko‘ra, asosan uch navga ajratilgan. Ulardan biri ipak chiqitlari, tarandilaridan tayyorlangan va unga hech qanday paxta tolasi qo‘silmagan. Bu qog‘oz nihoyatda puxta, go‘zal, mayin va juda silliq bo‘lib sariq tusda tovlanib turgan. Bu qog‘oz «qog‘ozi abrishumiy» ya’ni «qog‘ozi ipak» deb yuritilgan. Samarqand qog‘ozining ikkinchi xili-yarim shoyi qog‘oz bo‘lib, u ipak xom ashyosiga teng miqdorda nasha poyasi qo‘shib tayyorlangan. «Nimkatoniy» deb atalgan bu qog‘oz qalin, puxta va yaxshi ohorlangan bo‘lib, bunday qog‘ozdan qilingan kitobni varaqlashning qulay bo‘lgan. Uchinchi nav qog‘oz deyarli sof paxtadan tayyorlangan va u sifati hamda tayyorlash usuliga ko‘ra yuqorida aytil o‘tilgan qog‘ozlardan birmuncha pastroq bo‘lgan⁴⁵.

Samarqand shahri atrofida faoliyat yuritgan qog‘ozsozlarning asosiyl ish joylari xususiy yoki vaqfga tegishli bo‘lgan ustaxonlar bo‘lgan. Qog‘oz tayyorlash jarayonida ustaxonada faoliyat yuritgan ustalar o‘rtasida mehnat taqsimotiga amal qilingan. Masalan, qog‘oz tayyorlovchi usta-qog‘ozrez, qog‘oz ohorlovchi usta-muhrkash, paxta yuvuvchi usta-paxtasho‘y, qog‘ozga un-moy qo‘suvchi usta-ohorchi, qog‘ozni quritish uchun dorga osadigan yoki devorga yopishtiradigan usta-qog‘ozchaspon deb atalgan. Bundan tashqari xandakda qog‘oz talqonini

⁴³ Қиличев Р. Оламда яхши қоғаз самарқанддин чиқар... // Қўйи Зарафшон воҳаси: ижтимоий, маданий, маънавий хаёти тарихи (иккинчи китоб). – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 93-97.

⁴⁴ Абрамов М.М. Из истории производства самаркандской бумаги (к 200-летию Самарканда). // Общественные науки в Узбекистане. 1968, №12. – С. 31.

⁴⁵ Ҳабибулаев Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш. – Т., «ФАН» 1992. – Б. 46-47.

tepkilovchi, objuvozni ishlatuvchi-juvozchi, bir nechta xalfa hamda shogirdlar bo‘lgan. Qog‘ozsozlar shu arning o‘zidayoq tayyor bo‘lgan qog‘ozni savdogarlarga, hattotlarga va boshqa qog‘ozga muhtoj kishilarga sotishgan. Qog‘oz savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar ko‘tarasiga savdo qilib olgan qog‘ozlarni atrof shaharlarga yoki uzoq mamlakatlarga eltidir sotishgan. Qadimgi qog‘oz tayyorlash usuli yo‘q bo‘lib ketganligi sababli, biz arxivdan topilgan hujjatlar va boshqa manbalar asosida ajdodlarimiz qog‘ozni qanday tayyorlaganliklari haqida A.Fayziev quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi:

Kerakli miqdordagi birinchi navli paxta olinib, bo‘yra ustida yaxshilab suv bilan chayilgan, so‘ng u objuvozda bir kecha-kunduz davomida tortilgan. Shundan so‘ng talqon holga kelgan paxta ikkinchi bor suvda chayib olingan va unga kerakli miqdorda ishqor hamda ohak solinib, yaxshilab aralashtirilgan va objuvozda ikkinchi bor qayta tortilgan. Kerakli miqdorda qayta tortilgan qog‘oz talqoniga 4 pud ishqor, 1 pud ohak aralashtirib bo‘yra ustida yoz kunlarida 3 kun, qish kunlarida 15 kun quyosh tig‘ida saqlangan. Ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan so‘ng qog‘oz talqoni uchinchi bor objuvozga solinib 8 kun tortilgan. Shundan so‘ng objuvozdagagi talqon olinib surp matoga solingan va suvda chayib olingan. Qog‘oz talqonidagi suvni siqib chiqarish uchun og‘ir toshlarga bostirib qo‘yganlar. Suvni siqib chiqarilgan qog‘oz talqoni to‘rtinchi marotaba objuvozga solinib, 10 kun davomida tortilgan. Shu jarayonlardan keyingina qog‘oz qilish uchun kerakli xamirsimon xom ashyo - qog‘oz bo‘tqasi maxsus xandakga solinib oyoq bilan 2 soat davomida tepkilangan, so‘ngra 2 soat tayoq bilan savalangan. Shundan so‘ng uni suyuq holga keltirish uchun suv solingan. Suyuq qog‘oz bo‘tqasini ot qilidan tayyorlangan mayin to‘r ustiga bir xil yupqalikda solib chiqilgan. Shu jarayonda qog‘ozning qalinligiga alohida e’tibor berilgan, chunki uning qanchalik qalin yoki yupqaligi ana shu erda belgilab olingan va bir kecha-kunduz davomida suvini siqib chiqarish maqsadida ustidan tosh bostirib qo‘yishgan. Katta, yupqa varaqsimon holga kelgan qog‘oz bo‘laklariga yupqa qilib, bug‘doy uni va qo‘y moyi qo‘shib tayyorlangan shirach surtilib, quritish uchun yoz kunlarida 3 soat, qish kunlarida

bir kecha-kunduz davomida maxsus xona devorlariga yopishtirib qo‘yishgan yoki simdan qilingan dorga osib qo‘yishgan.Qurigan varaqlar devordan ajratib olinib, maxsus pichoq yordamida kerakli o‘lchamda kesib chiqilgan.So‘ngra shirach varaqning ikki tomoniga surtilgan.Qog‘oz tarkibi yanada zich va yaltiroq bo‘lishi uchun tosh o‘qlov bilan unga ishlov berishgan. Zarur bo‘lganda bu jarayon ikki-uch bor takrorlangan. Qog‘oz to‘liq qurishi uchun ipli dorlarga osib qo‘yilgan va shundan so‘ng iste’molga chiqarilgan. Arxiv ma’lumotlariga qaraganda 18720 varaq qog‘oz tayyorlash uchun 24 pud amerika sortli paxta, 24 pud ishqor, 6 pud ohak, 10 pud un, 1 puddan ortiqroq moy, 6 bo‘lak mato (1 bo‘lak 6-7 metr bo‘lgan) ishlatilgan. Qog‘ozsozlar qog‘oz tayyorlash jarayonida uning qanday rangda bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratganlar. Varaqlarning qanday rangga bo‘yalishi ma’lum bir ma’noni anglatgan. Masalan, havorang-motam, ayriliq alomatini, och-qizil - baxt-saodat, shodlik, bayram xabarini bildirgan. Ko‘k rangli qog‘ozlardan asosan qayg‘uli xabarlarni bildirishda foydalanishgan. Qog‘ozboflar ko‘p hollarda qog‘ozni och-qizil va yashil ranglarga bo‘yashgan, negaki bu ranglar oq qog‘ozga qaraganda kishiga qandaydir ruhiy tetiklik, orom bag‘ishlab, tez charchashning oldini olgan.

Xullas, «Muayyan darajada har qanday shaharda mavjud bo‘lgan ushbu hunarlardan tashqari shundaylari ham bor ediki, unga faqat bir shahar egalik qilardi. Qog‘ozgarlik ana shunday hunarlardan edi. U Samarqandda rivoj topgan edi»⁴⁶. Samarqand, Buxoro, Qo‘qon shaharlarida ajdodlarimiz tomonidan ipakdek silliq va yumshoq, uzoq yillarga chidamli, turli muhitlarga dosh bera oladigan, nam tortmaydigan qilib tayyorlangan turli-tuman qog‘ozlar ularning bu sohada yuqori malakaga ega bo‘lganidan dalolat beradi. YUqorida bayon qilingan qog‘oz tayyorlash usulidan ko‘rinib turibdiki, u qadar murakkab emas. Hozirgi fan-texnika taraqqiy etgan davrda bu jarayondagi ko‘pgina ishlarni texnika zimmasiga yuklash orqali qadim texnologiyalar asosida olingan qog‘oz bilan yo‘qolish arafasida turgan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar, hujjatlarni saqlab qolish mumkin.

⁴⁶ Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков Д.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973 г.

Qog‘oz ishlab chiqarishning nisbatan rivojlanganligiga mahalliy aholi orasida mazkur mahsulot turiga bo‘lgan talabning yuqoriligi ham ta’sir o‘tkazgan. Zero, Samarqand azaldan yirik ma’muriy, madaniy va iqtisodiy markaz sifatida doimo aholi zinch istiqomat qiluvchi hudud bo‘lgani tufayli unda turli yuridiq xujjatlar ko‘plab yozilgan, madrasa va maktablar faoliyati va umuman aholi turmushida qog‘oz ko‘p ishlatilgan. XIX asr o‘rtalarigacha qog‘oz tashqi savdodagi asosiy mahsulotlardan biri bo‘lgan. Xususan, uni Volga bo‘yiga eksport qilingan. Misol uchun, XVIII asr oxirida, amir SHoxmurod davrida bir pud o‘rta sifatli qog‘oz Samarqandda 45-55 rubl, Orenburgda 80 rubl turgan⁴⁷.

Aytish mumkinki, bozor bilan munosabatda bo‘lgan hunarmand asta-sekinlik bilan talabda bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashib borgan. Biroq, mazkur jarayon izchil bo‘lmay, bunga mahsulotlarning iste’mol xajmi katta bo‘lmay, aksariyat hollarda ularni qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga yoki boshqa turdagи mahsulotga almashinushi amaliyotda qo‘llanilgan. XIX asr o‘rtalariga kelib mintaqaviy va hududlararo savdoning katta xajmga ega bo‘lib borishi natijasi olib sotuvchilar faoliyati jadallahshdi. Buning natijasida hunarmandchilik ishlab chiqarishini mahsulotga bo‘lgan talabga qarab moslashuvchanligi yana ham ko‘zga tashlana borgan. Samarqandni imperiya tarkibiga qushib olinguniga qadar XVIII asrga nisbatan hunarmandchilik ishlab chiqarishida bir qadar yuksalish ko‘zatiladi.

XIX asr birinchi yarmida Samarqand O‘rta Osiyoning yirik hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblangan. Arxiv ma’lumotlari asosida 1869 yil oxirlarida Samarqand shahrida quyidagicha ustaxonalar faoliyat yuritganligini ko‘ramiz.

Samarqand shahrining mahalliy aholisining an’analari va ularning fe’l-atvori tufayli shahardagi barcha ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning aniq soni haqida ma’lumotlarni to‘plash nihoyatda qiyin bo‘lgan. Chunki, mahalliy aholi turli salbiy oqibatlardan hadiksiragan holda rus ma’muriyatiga aholi va uning turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik turlari, aholi soni va tarkibi bo‘yicha ma’lumotlarni

⁴⁷ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 26.

bermaganlar. Natijada arxiv ma'lumotlari va turli rus mualliflari asarlaridagi ma'lumotlar ham to'g'rilinga mualliflarning o'zлari ham ishonch bildirmaydilar. Biroq o'sha davr uchun ushbu keltirilayotgan ma'lumotlar nisbatan haqiqatga yaqinligi qayd etishimiz zarurdir. Hususan, 1872 yilda Samarqand nomli, uch qismdan iborat bo'lган asarda ham muallif o'zi keltirayotgan ma'lumotlar aniq bo'lmasa-da haqiqatga yaqinroq ekanligini qayd etadi. Unda keltirilishicha 1872 yilda Samarqandda 1085 ta do'konlar va 1610 ta ishlab chiqaruvchi ustaxonalar mavjud bo'lган⁴⁸. Ushbu ustaxonalarda quyida sanab o'tiluvchi barcha mahsulotlar ishlab chiqarilgan va sotuvga chiqarilgan. Yana bir tadqiqotchi L.N.Sobolevning fikricha Samarqand shahrida 1868-1869 yillarda 3 mingga yaqin do'konlar bo'lган.

Samarqandda qulda buyumlar yasash keng rivojlangan. Samarqand hunarmandlarining beqiyos va jozibali mahsulotlari dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mashhur edi. Samarqand buyumlari chiroqli va arzonligi bilan mashhur bo'lган.

Oddiy hunarmand oilalar bilan bir qatorda Samarqandda o'rtahol ustaxonalar ham bo'lib, ular yil davomida mahsulot ishlab chiqarishdan to'xtamagan. Hususan, imperiya hokimiyyati o'rnatilgan vaqtida Samarqandda 12 ta chuyan erituvchi, 4 ta g'isht ishlab chiqaruvchi, 34 ta chiroq va sovun ishlab chiqaruvchi, 45 ta qandolatchilik, 18 ta tuquvchilik stanoklarni yasovchi tokarlik va randachilik ustaxonalari bo'lган. Samarqand bo'yicha jami 113 ta o'rta va 1495 ta kichik hunarmandchilik va kasanachilik ustaxonalari mavjud edi. Mazkur ustaxonalar va ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar xajmini chamalab ko'rilsa, shahardagi hunarmandchilik va kasanachilik ishlab chiqarishining naqadar katta miqyosdagi aholini band etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Uy ishlab chiqaruvi bilan birga mayda hunarmandchilik sanoatning hududga mos tipik shakli edi. Biroq mazkur ustaxonalar va boshqa kasanachilik korxonalarining ishlab chiqarishi tezligi past va mahsulotining xajmi kam bo'lган.

⁴⁸ Иванов Д.Л. Самарканд. – Самарканд, 1872. – С. 28-29.

Shaharda ayniqsa etikdo‘z, terichilar, bosh kiyim tayyorlovchilar, qog‘oz qushoq yasovchilar, qulfsozlar, tillo va kumush buyumlar yasovchilar, misgarlar ajralib turgan. Undan tashqari, nonpazlar, chiroqchilar, tokarlar, matolarni buyovchilar, turli rangdagi sifatdagi buyoqlarni tayyorlovchi ustalar bo‘lgan.

Samarqand shahridagi ustaxonalar va kasanachilik korxonalarining bu shaklda faoliyat yuritishini tarqoq ko‘rinishdagi manufaktura sanoati deb baholash mumkin. Samarqand hunarmandlari sexlarga birlashganlar. O‘ziga to’q ustalar orasidan oqsoqol (usta) saylanib, ularni Samarqand beklari tasdiqlaganlar.

Sex ichidagi munosabatlar sex nizomi asosida muvofiqlashtirilgan. Sexlarda asosan ko‘p sonli shogirdlar mehnat qilishgan. Ko‘p yillik mehnat faoliyatidan so‘ng shogirdlarga xalifa maqomi berilgan. Biroq, xalifa maqomi hammaga ham nasib qilavermagan. Chunki, xalifa maqomiga ega bo‘lishi uchun muayyan miqdorda moddiy mablag‘ga ega bo‘lishi talab qilingan. Xalifaning usta maqomiga ko‘tarilishi uchun yana ham ko‘proq moliyaviy mavblag‘ga ega bo‘lish talab etilar edi. Hususan, usta maqomi berilishi uchun katta boylik va shaxsiy mol-mulkka ega bo‘lish talab etilardi. Shuning uchun usta maqomiga ko‘pchilik erisha olmagan. Eski tajribali ustalar o‘z kasbining sirlarini shogirdlari va xalifalarga kamdan-kam holatlarda o‘rgatganlar⁴⁹. Kasb sirlarini saqlash ustalar va hunarmandlar oilalarini keyingi avlodlarini ham yaxshi hayotini ta’minlash garovi bo‘lgan. SHuning uchun ham hunarmandchilik faoliyati o‘ziga xos oilaviy pudrat xarakteriga ega bo‘lgan.

Hunarmandchilikning ayrim sohalari o‘z ustaxonlarida mahsulotni ham ishlab chiqarganlar ham sotganlar. Ya’ni, hunamandchilik va savdo bir rastani o‘zida amalga oshirilgan. Hunarmandlarning bir qismi o‘z rastalari va umuman o‘z ustaxonlariga ega bo‘lmagan. Ular rasta yoki ustaxonalarni ijara qilganda olganlar. Mazkur kishilar daromadi boshqalarga nisbatan kam bo‘lgan.

Ba’zi manbalar tahlili amalga oshirilganda ustalar tomonidan o‘z ustaxonalarini “Sotuv vasiqa”lari orqali boyga sotib shu vasiqa orqali yana usha ustaxonani o‘zi ijara qilganimiz. Bu holat hunarmandlarni

⁴⁹ Мукминова Р.Г. Очерк по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Т., Фан, 1976. – С. 164.165.

aksariyat hollarda olib sotuvchi va boshqa shu kabilar ta'sirga tushib qolishini hamda ular tomonidan ekspluatatsiya qilinishini namoyon etadi.

Shunday qilib, bir tomonidan hunarmandchilik ishlab chiqarishini muayyan tartib-qoidalar asosida taraqqiy etib borishini ko'zatsak, ikkinchi tomondan, kasanachi-hunarmandlarning ahvolini og'irligini hamda ular orasida ham tinimsiz tabaqalashuv sodir bo'lib borishi va hatto ularni boy-badavlat olib-sotuvchilar yoki foizchilar ta'siri ostiga tushib qolishi holatlarini ko'zatamiz. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda, XIX asr o'rtalariga kelib Samarqanddagi hunarmandchilik ishlab chiqarish xo'jaliklari o'z faoliyatlarida birinchidan, yiriklashgan bozor munosabatlariga rubaru kelgan, ikkinchidan, mazkur yangi yirik bozorda raqobatning yanada og'irroq kechishi natijasida mayda hunarmandchilik xo'jaliklarini inqirozga yuz to'tishi jarayoni sodir bo'lgan.

Hunarmandlarning umumiyligi ahvoli bo'yicha xulosa chiqara olmasligimizga amirlik yoki Samarqand viloyatida statistik ma'lumotlarni to'planib borilmagani sabab bo'ladi. Undan tashqari, qishloq hunar ishlab chiqaruvchilari bilan mayda hunarmandlar nisbati va ular tomonidan etishtirib beriladigan mahsulot hajmi va boshqa shu kabi ma'lumotlarni umumlashtirish imkonini mavjud emas. Biroq, shuni ta'kidlash mumkinki Zarafshon vohasi hunarmandlarining mehnat haqi nisbatan past bo'lgan. Masalan, XIX asr 60-yillaridagi sayohatchining ma'lumotlariga ko'ra tikuvchining kunlik daromadi 10 tiyindan oshmagan. Samarqandda hunarmandlarning ma'lum qismi buyurtma asosida ishlaganlar.

Ta'kidlash mumkinki, bir holatda ustalar bevosita iste'molchilar uchun ishlovchi – hunarmandlar sifatida, ikkinchi holatda esa hunarmandlar sifatida emas, balki bozor uchun ishlovchi, mahsulot ishlab chiqaruvchi kasanachilar sifatida gavdalananadi.

Qishloq xo'jaligida bo'lganidek, hunarmandchilik ishlab chiqarishida yollanma ishchilar mehnati kam yoki umuman qo'llanilmagan. Biroq, "miqdori 4-40 rubl miqdorida bo'lgan "bunoq" tizimi keng tarqalgan. Ustaxonadan ketishdan oldin ishchi xujayinga undan olingan "bunoq"ni to'lashi kerak edi. Bu holatlarda

ustalar xajmi kattaroq bo‘lgan “bunoq” bergan va hunarmand mehnatiga ko‘proq haq to‘lagan buyurtmachini ishini bajarganlar. Shu ko‘rinishda buyurtmachi va hunarmandlar o‘rtasida moliyaviy qaramlik munosabatlari shakllangan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining alohida, oilaviy o‘ziga xos xarakterga egaligi, hunarmandlarning sex kabi tashkilotlarining cheklanganligi (moddiy negizga ega bo‘lmagan ustalarning yuksala olmasligi), “bunoq” tizimining keng tarqalganligi, ularning ish haqining kamligi va tez-tez sodir bo‘lib turadigan o‘zaro urushlar, beklar va din vakillarining o‘zboshimchaligi mehnatkash aholi turmushiga nihoyatda salbiy ta’sir o‘tkazgan. XIX o‘rtalaridagi mazkur ko‘rinishdagi (feodal ishlab chiqarish) ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish rivojiga jiddiy to‘sinq bo‘lib xizmat qilgan. Bu munosabatlar nafaqat insonlar fikrlashini, balki iqtisodiy rivojlanishni to‘xtatishga muvaffaq bo‘lgan.

XIX asr 40 yillarigacha amirlikda ichki va tashqi savdo asosan bir qancha yirik savdogarlar qo‘lida mujassamlashgan edi. Umuman olganda bu davrga kelib bir necha asrdan beri asta-sekinlik bilan Rossiya bilan olib borilayotgan savdo munosabatlari o‘rganilayotgan davrga kelib o‘zining doimiy rivojlanish harakatidan to‘xtab qolmadidi. Ya’ni, ta’kidlash mumkinki bu vaqtga kelib Rossiya bilan O‘rta Osiyo, shu jumladan, Buxoro amirligi va o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi-ki amirlik yirik savdo markazi sifatida Samarqand shahrining ham savdo aloqalari har qachongidan ham o‘sib borardi. Rossiya bilan savdoning asosiy mahsuloti paxta va paxta buyumlar tashkil etib, Samarqand viloyati ham amirlikning yirik paxta etishtiruvchi hududlaridan biri sifatida bu savdoda faol ishtirok etgan.

Samarqand viloyati Buxoro amirligining boy viloyatlaridan biri sifatida ichki va tashqi savdoda katta rol uynagan. Hududlarning ayrim xo‘jalik turlari va mahsulot etishtirib berishi borasida ixtisoslashib borishi natijasida joylarda savdoning markazi bo‘lgan bozorlarni shakllanishiga sabab bo‘ldi. Zarafshon vohasida shunday savdo markazlaridan Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Panjikent, Uratapa, Yangiqurg‘on, Dagbit, Urgut bozorlari bo‘lgan. Ayniqsa Samarqand va Kattaqurg‘on bozorlarida don va don mahsulotlari hamda boshqa qishloq xo‘jalik

mahsulotlari bilan keng miqyosda savdo amalga oshirilgan. N.Xanikov ma'lumot keltirishicha Buxoro, Samarqand, Qarshi bozorlarida mahsulotlarga narx belgilangan va pul kursi belgilangan. Mazkur shaharlarda asosan tashqi ulgurji savdo mujassamlashgan bo'lib, mazkur savdo yirik mulkdorlar qo'lida to'plangan edi.

Chakana savdo bilan o'rtahol va mayda savdogarlar shug'ullanishgan. Savdogarlarning katta qismi yirik mablag'ga ega bo'lmanliklari sababli chakana savdo bilan shug'ullangan va bir bozordan ikkinchisiga ko'chib yurgan. Eng yirik bozor shahar markazida joylashgan.

Savdo bilan faqatgina bozorlarda emas balki doimiy do'konlarda ham shug'ullanishgan. Do'konlar soni haqida T.S.Saidqulov arxiv ma'lumotlariga tayangan holda quyidagi ma'lumotni keltiradi⁵⁰:

Keltirilgan jadvaldan ma'lumki Samarqandda do'konlarning soni ko'p bo'lgan. Ularda ulgurji va chakana savdo amalga oshirilgan. Ushbu do'konlarning ayrimlari hunarmandchilik ustaxonalari huzurida joylashgan edi. Shaharda, undan tashqari, 50 ta Rossiyadan keltirilgan turli mahsulotlar bilan savdo qiluvchi, shu bilan birga 394 ta mavsumiy mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'konlar ham bo'lgan.

A.F.Fayzievning ma'lumot berishicha XIX asrning birinchi yarmida shaharda 3105 ta rastalar mavjud bo'lib⁵¹, savdo faqatgina do'konlarda emas, balki rastalarda ham qizg'in amalga oshirilgan.

1868 yil ma'lumotiga ko'ra Samarqanddag'i 35 ta karvon-saroylardan faqatgina bittasida tozalanmagan jun sotilgan. U markaziy bozorning ichida joylashgan bo'lib, Jun-saroy deb atalgan. Bu karvon-saroy Mulla Orifboyning xususiy mulki bo'lib, bu saroy 15 ta do'kondan iborat edi. Mazkur do'konlarning har biriga 8 botmonidan jun joylashtirish mumkin bo'lgan. Undan tashqari, "Guri amir masjidiga tegishli vaqf er hududida joylashgan yana 50 tacha do'kon" junli

⁵⁰ Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 30.

⁵¹ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 35.

buyumlar, qoshma, palas va gilamlar bilan savdo qilgan.

Sanab o‘tilgan do‘konlarda asosan samarqandlik hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan savdo qilingan. Undan tashqari, Samarqand qushni va chegaradosh davlatlar bilan ham qizg‘in savdo olib borgan.

Eng sifatli junli xalatlar Afg‘oniston, Eron, Qobul va Kashmirdan keltirilgan, qishki movutlar Uratepadan, ot ulovi va yopinchiqlari, yuqori sifatli palas va gilamlar Qarshi va Buxorodan keltirilgan. Eng qimmat, ayniqsa rang-barang, qoshmalar Jizzax, Toshkent va Xujanddan keltirilgan. Samarqand bozorlarida ba’zida kam bo‘lsa-da Hindistondan keltirilgan harir junli matolar ham sotilgan.

XIX asr 50-yillaridan Buxoro amirligining va shu jumladan Samarqandning Rossiya bilan savdo munosabatlari o‘zgara boshladi. XIX asr 40-yillarida Rossiyaga asosan O‘rta Osiyo savdogarlari tashrif buyurgan bo‘lsalar, endilikda o‘z mahsulotlarini amirlik bozorlariga olib kela boshladilar. Bu borada Suchkovlar, Xludovlar, Morozovlar firmalari faollik ko‘rsatishgan. Rus savdogarlari Samarqanddan avvalo paxta homashyosini harid qilishgan. Chunki bu mahsulot Rossiya tekstil sanoatini rivojlanishi uchun juda muhim edi.

XIX asr asr o‘rtalari O‘rta Osiyo davlatlarining boshqa hududlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi davri bo‘ldi. Bunga bir tomonidan mazkur davlatlar o‘rtasidagi urushlarning kam sodir bo‘lishi sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, jahondagi yetakchi rivojlangan davlatlarda sanoat rivojlanishi natijasida katta xajmda homashyo mahsulotlariga ehtiyojning oshib borishi va ishlab chiqarilayotgan katta xajmdagi mahsulotlarni sotish uchun iste’mol bozorlarini zarurligi sabab bo‘lgan. umumiyl qilib aytganda, yetakchi imperialistik davlatlar uchun homshayo va iste’mol bozorlari tanqisligi vujudga kelgan edi. Bu esa ular tomonidan bir necha asrlar davomida jaxon savdosidan nisbatan yiroqlashib qolgan O‘rta Osiyo davlatlaridek davlatlar bilan ham savdo munosabatlarini rivojlantirishni taqozo etgan.

Shunday qilib, XIX asr o‘rtalarida Samarqandni O‘rta Osiyo shaharlari va boshqa qo’shni davlatlar bilan savdo aloqalari rivojlandi. XIX asr ikkinchi yarmida

Samarqandni Rossiya bilan savdo aloqalari yanada jonlangan. Bu esa o‘z o‘rnida shahar iqtisodiyotini yuksalishiga sabab bo‘lgan. O‘sha davr iqtisodiy ma’lumotlar beruvchi “Golos” gazetasida “Ekaterinburg yoki Troitskdan, Petropavlosk, Akmolinsk, Turkiston va Toshkent orqali Samarqandga har yili 7500 tagacha tuya va 3000 mingtagacha aravalar qatnab, ular 150000 pud xajmda tovar va buyumlar hamda Omskdan 10000 pudgacha davlat yuklarini tashiydi”, kabi ma’lumotlarni keltiradi.

Biroq, savdoning rivojiga yomon ma’muriy boshqaruv tizimi, aholining asosiy qismining past va cheklangan talabi, aloqa yo‘llari va tashuv vositalarining yomon ahvoli, savdo karvonlarini tez-tez xujumlar va talonchiliklarga duch kelishi, turlicha yuqori va hilma-xil bojxona to‘lovlari, bojxona xodimlarining porahurligini keng tus olganligi, tinimsiz o‘zaro feodal kurashlar va kreditlash tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi tusqinlik qilar edi.

Samarqandda katta mablag‘ga ega savdogarlar kam bo‘lgan. Samarqand savdogarlari doimo buxorolik savdogarlardan olti yoki bir yilga qarz olib turishgan.

Bundan tashqari, O‘rta Osiyo savdogarlari Rossiyada va Rossiya savdogarlari O‘rta Osiyoda bir hil huquq va imtiyozlarga ega bo‘lishmagan. Misol uchun, 1859 yilda Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Buxoro amiriga Buxorodan Rossiyaga keltiriladigan paxta va paxta mahsulotlariga boj to‘lovlari solinmaydi, lekin shunga qaramasdan rus savdogarlarining amirlikdagi huquqiy ahvoli qoniqarsiz⁵², deb yozgan edi.

Lekin, shahar iqtisodiy hayotini gavdalantirishda yana bir muhim omil mavjud. U ham bo‘lsa, shahardagi mavjud mulklar va ularning tasnifi.

Bu davrda (XIX asr birinchi yarmida) Samarqand shahri hayotida ibodat bilan bog‘liq inshootlarning aholi turmushidagi ahamiyati katta bo‘lgan. XIX asrda shaharda 155 ta go‘zar masjidlari faoliyat yuritgan. Ularda har kuni besh vaqt namoz o‘qilgan. Ba’zi yirik masjidlarda juma namoz kunlari bir necha mavze

⁵² Сайдқулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 32.

odamlari to‘planishgan. Ramazon va Qurbon hayiti namozlari vaqtida maxsus yirik namozgohlarda o‘qilgan. Ular odatda shahar tashqarisida joylashgan bo‘lardi.

A.F.Fayziev arxiv ma’lumotlariga tayanib keltirishicha Samarqandda Tillaqori, Xuja Zulmurod, Ruxobod, Xazrati SHoxi Zinda eng yirik masjidlar hisoblangan. Ko‘pgina masjidlar o‘zlarining vaqflariga ega bo‘lgan va uning daromadlari hisobidan mutavalliy, imom va muazzinlarga maosh to‘langan. Ortgan daromad qismi masjid ta’miriga yoki boshqa ehtiyojlarga ishlatilgan. Masjidlarga vaqf taqdim etish an’anasi O‘rta Osiyo jamiyatida asrlar davomida shakllangan bo‘lib, ular yirik zamindor yoki mansabdar va hatto hukmdorlarning o‘zlari tomonidan ham berilgan.

Barcha masjid va madrasalarning mulkclarini tasnifini amalga oshirish natijasida masjidlar va madrasalar yirik yer egalari hisoblanishganligi va ular asosan o‘sha vaqflari hisobiga faoliyat yuritishganligi ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, aytish joizki, shaharda yirik mulklar diniy muassasalarga tegishli bo‘lgan.

Shaharda savdogarlar uchun mo‘ljallangan karvon-saroylarning ham o‘rni katta edi. XIX asr o‘rtalarida shahridagi karvon-saroylar soni 58 ta bo‘lib, ular turli mahsulotlar savdosi bilan shug’ullanuvchi savdo majmualaridan iborat bo‘lgan. Mazkur karvon-saroylar savdo buyumi yoki uning asoschisini nomi bilan atalgan. Masalan, saroyi mayiz, saroyi ord, saroyi birinji mayda, saroyi tamoku furushi, saroyi rangubor furushi, saroyi shinni, saroyi Orifjon boy, saroyi Maxsum, saroyi Muxammad, saroyi Karimboy, saroyi Podshoxi, Jun saroy va h.k. Arxiv xujjatlari ma’lumotlari asosida ularning kattaligi, xizmat turlari haqida ma’lumotlarni ham bilib olishimiz mumkin. Masalan, Davlat qushbegi saroyi birinchi qavatda 30 xujra, erto‘lada uchta xona va omborxonaga ega bo‘lgan. Ikkinci qavatida ham 30 ta xona mavjud bo‘lgan. Qushxovuz go‘zaridagi Orifjon boy saroyida 45 ta xona bo‘lgan. Maxsum saroyida 14 ta xona va 7 ta do‘kon, Muxammad Karim boy saroyida 26 ta xona, Misgar saroyida 15 ta savdo xonalari bo‘lgan.

Karvon-saroylar sonining ko‘pligi, ularning xajmi kattaligi shaharda savdosodiq ishlarining jadal borishi va tovar ayirboshlash xajmining ham kattaligidan

dalolat beradi. Undan tashqari, ushbu ma'lumotlar Samarqandni boshqa hududlar bilan ham savdo munosabatlarining qizg'in bo'lganligidan dalolat beradi.

Ichki va tashqi savdoning izchil rivojiga yagona pul tizimining va kreditlash tizimining mavjud emasligi tusqinlik qilardi. Ba'zi hollarda savdogarlar o'rtasida ishonch yoki ishonch yorliqlari asosida qarz olish va berish munosabatlari ham o'rnatilgan. Lekin, bu ayrim holatlar savdoning umumiyligi ahvoliga ta'sir o'tkaza olmas edi.

Xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqarishning qoldiq, samarasiz uslublari hukm surishi sababli bozor munosabatlari qizg'in bo'lmagan. Bu esa o'z o'rnida tashqi savdoga o'z ta'sirini o'tkazgan. Undan tashqari, aholining nisbatan past sotib olish qobiliyati ham ichki va tashqi savdoni jonlanishiga to'sqinik qiluvchi omil bo'lib qoldi.

O'zaro iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish ko'chlarining o'sishigiga ham olib kelgan. Samarqand qadimdan hunarmandchilik ishlab chiqarish markazi bo'lib kelgan. Bu yerda ayniqla, to'qimachilik, egarchilik, ipakchilik, qog'oz ishlab chiqarish va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlangan edi. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan mahsulotlar o'zining aclligi, pishiqligi va arzonligi bilan mashxur edi. Quyi darajadagi ishlab chiqarish texnikasida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ayniqla asosiy hunarmandchilik tarmoqlarining qo'l mehnatiga asoslanishi, bu hunarmand ustalarning iqtidori va yuksak mahoratli mehnati bilan bog'liq edi. Hunarni o'rganish bolalik chog'dan boshlanib, matonatli sinchkovli mehnatni talab etilgan. Faqat nihoyat darajadagi tirishqoqlik bilangina hunarmand maxsus, mohir va epchil usta bo'la olgan. Mukammal kasbni o'rgangan ustalar o'z hunarlari sirini saqlashga harakat qilgan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarish xo'jaliklarida o'ziga ravishda ishlab chiqariladigan mahsulotning xajmi, xo'jalik miqyosidan kelib chiqqan holda ichki savdo yoki tashqi savdo uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar turi shakllangan.

Samarqand shahrida savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanuvchi aholi ko‘pchilikni tashkil etgan. Aholi xujaligining deyarli barchasi ishlab chiqarish yoki mahsulot tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lib, ular ham shahardagi savdo munosabatlarini rivojiga o‘z hissasini qo‘shtigan. Samarqandda mintaqaviy savdoda muhim o‘rin tutgan yirik bozorlar mavjud bo‘lib, bu bozorlardagi narhlar qushni viloyat va davlatlar bozorlaridagi narh-navoni belgilashga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shaharni yirik savdo markazi bo‘lganligi va ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan ko‘plab mahsulotlarni talabgirligi aholi turmushini va xo‘jaliklar faoliyatini mavjud bozor munosabatlariga moslashuviga sabab bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytganda, XIX asr birinchi yarmida va ayniqsa, asr o‘rtalarida Samarqand shahrida qizg‘in savdo-sotiq munosabatlari, yirik bozorlar mavjud bo‘lib, bu jarayon bevosita aholi turmushida xo‘jalik yuritish qonuniyatlarini ushbu munosabatlar tizimida shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Umuman olganda, XIX asr birinchi yarmida samarqand shahri yirik savdo markazi bo‘lib, unda istiqomat qiluvchi turli millat vakillari qizg‘in savdo munosabatlarida faol ishtirok etgan. Aksariyat hollarda ishlab chiqarish jarayonlarida etnik o‘ziga xoslik o‘z aksini topgan. Ya’ni, ayrim millat vakillari muayyan mahsulot turlarini etishtirish va ishlab chiqarishda yetakchilik qilishgan.

II.2. Buxoro amirligi davrida Samarqandning madaniy hayoti.

XIX asr birinchi yarmida amirlikda va shu jumladan, Samarqand viloyatida madaniy hayot nisbatan qoloq va feudal munosabatlar bilan chegaralangan edi. Amirlik aholisi tarkiban turli millat va elatlardan iborat bo‘lib, ularning har birining o‘ziga xos madaniy munosabatlari mavjud edi. Ayniqsa, bu jarayon o‘rug‘chilik munosabatlari hukm surgan jamiyatda yana ham yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Biroq, hududda istiqomat qiluvchi har bir millat va elatning madaniy hayoti va turmush tarzida feudal munosabatlar, tinimsiz o‘zaro urushlar iz qoldirgan edi.

Shunga qaramasdan XIX asr birinchi yarmida Samarqandda ilm-fan rivojlanishdan to‘xtamadi, shahar amirlikning yirik madaniy markazi sifatida mavqeini saqlab qoldi.

Amirlik jamiyatida feodallar, ruhoniylar (din peshvolari) va savdogarlar qatlaming keng halq ommasini madaniy va ma’naviy rivojlanishlari uchun intilmasliklari ularni madaniy va ma’naviy taraqqiyotga qarshi bo‘lgan ijtimoiy guruhlar ekanligi haqida xulosa chiqarishga undaydi.

XIX asr birinchi yarmida Samarqand shahri aholisining qarashlari va madaniy ham ijtimoiy hayotiga muhim ta’sir o’tkaza olgan ilm va fan vakillari, ziyorilar qatlami an’anaviy ta’lim maskanlari hisoblangan maktab va madrasalarda tarbiyalangan.

Bu davrdagi ma’naviy jarayonlar tahlilini amalga oshirar ekan sovet davri mualliflari din peshvolari halqni hukmron sinf manfaatlariga buysundirishga

intilishlari bilan zulmkor boshqaruv tizimini mustahkamligini ta'minlash bilan birga taraqqiyotga tusqinlik qilib kelayotganligi haqida fikr yuritadilar. O'z o'rnida hukmron sinf esa aholi orasida tashviqotlarni olib borishlari ularning tayanch muassasalari bo'lgan masjid va madrasalarni moliyalashtirib borganlar⁵³, degan xulosalarni beradilar. XIX asr o'rtalarida Samarqand va uning atroflaridagi hududlarda 155 ta masjid va 22 ta madrasa faoliyat olib borgan. XIX asr 70-yillarida esa Samarqandda 1600 ta o'quvchisi bo'lgan 80 ta maktab bo'lgan. undan tashqari qizlar uchun otinoyilar boshchiligidagi 10 ta maktab faoliyat yuritgan⁵⁴. Mazkur muassasalar halqni islom aqidalari va tushunchalari hamda hukmron sinf manfaatlariga mos g'oyalar asosida tarbiyalovchi maskanlar edi. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda mazkur diniy va maorif maskanlari jamiyatda islom ahkomlari va din vakillari orqali hukmron doiralarni o'z hukmlarini aholi orasida mustahkamlash quroli sifatida faoliyat yuritib borar edilar.

XIX asr birinchi yarmi davomida din vakillari tazyiqi va dastlab amir Xaydar, keyinchalik amir Nasrullo davrida o'z davrining ilg'or kishilari shoira Nodira, Buxoro madrasasi mudarrisi Xojiboy, Qozi Abusaid Samarqandiy, boysunlik mudarris Xudoyberdi, gjiduvonlik mudarris Fozil va boshqalar qatl etilganlar⁵⁵.

Aniqroq aytadigan bo'lsak, hukmron tabaqa vakillari va ular manfaatlarini himoya etuvchi din peshvolari barcha joylarda diniy mutaasiblik g'oyalarini mustahkamlash borasida ish olib borganlar. Mavjud tizim qoidalarini o'zgartirish, isloh etish, yangiliklarni joriy etish bo'yicha har qanday tashabbuslar keskin tanqid ostiga olingan yoki jazolangan.

Samarqand viloyati va shahar hududida an'anaviy madrasa, qorixona, xonaqo va daloyilxonalar kabi ta'lim maskanlari bo'lib, ular yoshlar va katta avlod vakillari ma'nnaviyati va axloqiy tarbiyasini oshiruvchi maskanlar vazifasini bajargan.

⁵³ Сайдкулов Т.С. Самарканد во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 34.

⁵⁴ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 38.

⁵⁵ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Душанбе, 1926. – С. 15-16.

Madrasalarda dunyoviy ilmlardan ko‘ra, diniy ilmlarga, xususan shariat aqidalariga keng o‘rin berila bordi. Islom asoslarini, shariatni, fiqhni bilishning o‘zi yetarli, degan cheklangan qarash madrasalarda ham o‘rin ola boshlaydi. Sxolastika, kitobiylik, mutassiblik kuchayadi, ta’lim tizimida turg‘unlik, aytish mumkinki, sukutlik (regress) tamoyili yetakchilik qiladi. Bu hol to XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha hukm suradi⁵⁶. Samarqand madarsalari faoliyatida ham yuqorida keltirilgan vaziyat hukm surgan.

Samarqandda XIX asrda faoliyat yuritgan madrasalar binolarining aksariyati XV-XVIII asrlarda bunyod etilgan. Madrasalar ta’mnoti yirik vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilgan. Masalan, Samarqanddagi Sherdor va Tillakori madrasalari vaqflardan yiliga 7600 so‘m daromad olingan⁵⁷.

Samarqand madrasalari davlat hisobidan tashkil etilgan bo‘lmasa-da, ularning faoliyatini nazorat qilish, boshqarish va ta’minlashni mustahkam mexanizmi mavjud bo‘lgan. Bu tizim asrlar davomida takomillashib borgan. Biroq, XIX asr sharoitida ta’lim maskanlari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha shakllangan mexanizm jamiyat va davr talabiga javob bermay qolgan edi.

Madrasalar nazorati musulmon diniy hokimiyat vakillari – Shayx ul-islom va qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Maxsus – xo‘jalik ishlari bo‘yicha nazorat a’lamiyon va mutavalliboshi (bosh mutavalliy) zimmalariga yuklatilgan. A’lamiyon hukumat tomonidan tayinlanib, poytaxt va viloyatlarda joylashgan madrasalarning o‘quv va moddiy tomonlarini nazorat qilgan hamda xon g‘aznasidan belgilangan maosh olgan. Bu lavozim amirlik va xonliklarda bo‘lgan. Mutavalliboshi hokim qarorgohi bo‘lgan har bir shaharda joriy etilib, tumanlardagi mutavalliylar faoliyatini nazorat qilish uning zimmasiga yuklatilgan. Har bir mutavalliya tasarrufidagi vaqf mulklaridan tushgan daromadning 10/1 qismi maosh sifatida ajratilgan.

Madrasa boshlig‘i sifatida barcha fanlar o‘qitilishini nazorat qiluvchi mudarris

⁵⁶ Ўзбек педагогикаси антологияси (II жилд). – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1999. – Б. 9.

⁵⁷ Исмаилова Д.А. Роль и место ислама в общественно-политической жизни народов Туркестана (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2006. – С. 14.

tayinlangan. Mudarris yuqori bosqich talabalariga va uning boshchiligidagi yordamchi-muqarrirlar quyi bosqich talabalariga dars berganlar. Mudarris faqat madrasadagi o‘quv jarayoniga mas’ul bo‘lib, vaqf mulklarining boshqaruviiga aralashish vakolatiga ega bo‘lmay, faqat madrasa ehtiyojlari haqida mutavalliyiga axborot berishi mumkin edi.

O‘quv dasturlar asosini islom huquqshunosligi, arab tili grammatikasi tashkil qilgan. Fanlarning ko‘p qismi diniy bilimlardan iborat bo‘lib, falsafa, geometriya, matematika, geografiya, tibbiyot, kimyo kabi fanlar ham o‘qitilgan⁵⁸. E.N.Pavlovskiy ma’lumotiga ko‘ra madrasalarda tarix, fizika, tabiat fanlaridan qisqa va umumiyligi ma’lumotlar ham berilgan.

Samarqand aholisi madaniyati, turmush tarzi, udumlari va ta’lim muassasalarini faoliyatining ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ta’lim usullari amirlilik va xonlikning barcha hududlarida deyarli bir-hil bo‘lgan⁵⁹.

Madrasada o‘qitish bir necha bosqichda amalga oshirilib, bosqichlarni belgilash o‘tilayotgan fan mazmuniga bog‘liq edi. Mazkur bosqichlarning birinchisi “adno” – quyi bosqich, ikkinchisi “avsat” – o‘rta bosqich va uchinchisi “a’lo” – yuqori bosqich – deb yuritilgan.

Har bir bosqich uchun muayyan vaqt ajratilmagan. Lekin har bir bosqichga odatda 3 yil va undan ko‘proq vaqt sarflangan. Biroq madrasa talabalarining barchasi to‘liq uchchala bosqichni tamomlamagan. Faqatgina kelajakda mudarris, qozi yoki muftiy, olim bo‘lishni istagan o‘quvchilargina to‘liq ta’limni tugallaganlar. Ta’lim bosqichlariga qarab quyidagicha nafaqa belgilangan: quyi bosqichda – 4-12 rubl, yuqori bosqichlarda – 15-35 rubl miqdorida.

O‘rta Osiyo madrasalarining o‘quv dasturlari asosan o‘rta asrlarda shakllangan edi. Mashg‘ulotlar olib borishga mo‘ljallangan adabiyotlar islom olamining ko‘p asrlik madaniyatini o‘zida aks ettirar edi. Misol uchun, “Shamsiya”

⁵⁸ Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи. – Андижон.: Мерос, 1994. – Б.60; Исмаилов Ш.Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук.. – Ташкент, 1981. – С. 15.

⁵⁹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград, 1927. – С. 130.

(formal mantiq kitobi) va unga sharhlar – XIII asrda, “Aqoid” – musulmon din aqidalarini bayon etuvchi kitob – XII asrda, “Mantiq Tahzib” – mazmunida yunon falsafasining arabcha talqinini o‘zida mujassam etuvchi dialektika kitobi – XVI asrda, Shariat – Qur’on va muqaddas rivoyatlar asosida bayon qilingan diniy, fuqarolik, jinoiy va boshqa davlat, jamiyat qonun qoidalari hamda xususiy axloq me’yorlari to‘plami VIII-IX asrlarda tuzilgan⁶⁰. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko‘ra diniy ta’lim susayishi natijasida ta’lim sharhlovchi tusga ega bo‘lib, har qanday yangilik yoki ta’lim dasturlarini yangilashga bo‘lgan intilishlar qat’iy muhokama qilingan⁶¹. Madrasalarda hech bir fanni o‘qitishda maxsus pedagogik uslubiyat yoki metodika qo‘llanilmagan. Biroq, ta’lim davomida talabalar musulmon faylasuf va pedagoglari qarashlari bilan tanishib borishgan.

Madrasa bitiruvchilarining katta qismi maktablarda o‘qituvchilik qilishgan, jumladan bir qismi imom, bir qismi malakali maktabdor sifatida faoliyat yuritgan. Kam ta’minlangan talabalarning ko‘pchiligi talabalik davridayoq o‘qituvchilik qilishgan. Mana shu jihatlar aynan, madrasalar va ularda ta’lim olgan toliblarni halq va el orasida ta’siri kuchlilagini ta’milagan.

Madrasalarda ta’lim mazmunan ko‘p asrlik an’analarning o‘zgarmasdan saqlanib qolishi XIX asr ikkinchi yarmiga kelib dunyo taraqqiyotidan va zamon talablaridan orqada qolayotgan edi. Ikkinci tomondan, mazkur holatda musulmon dini peshvolari hamda reaksiyon kuchlar ta’lim islohotiga qarshi turganliklari mazkur ta’lim maskanlarini muayyan qolipdagi g‘oya va fikrlarni targ‘ib etuvchi vazifasini o‘tayotgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Maktablar va umuman, ta’lim muassasalarining ichki va tashqi muhiti amirlik, jumladan Samarqand viloyati va shahri aholisining ijtimoiy hayoti va turmushiga xos edi⁶². Ya’ni, asarlar davomida faoliyat yuritayotgan ta’lim maskanlari avvalo

⁶⁰ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане 1865-1924 гг.– Москва: «Наука», 1960. – С. 53-54.

⁶¹ Фитрат А. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть)/ Перевод с персидского А.Н.Кодратьева. – Самарканд, 1913. – С. 19.

⁶² Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград, 1927. – С. 130.

islom dini aqidalari va aholi turmush-tarzining jihatlarini o‘zida mujassam etib borgan. Natijada jamiyatda kechayotgan ilg‘or rivojlanish hodisalari, barqaror siyosiy muhit va o‘zaro urushlar barchasi ta’lim muassasalari faoliyatida o‘z aksini topib boravergan.

Keng aholi dunyoqarashi va madaniy tushunchalari, albatta, ta’lim orqali shakllanadi. Shu sababli, Samarqand aholisini, binobarin, butun amirlik aholisining dunyoqarashi ta’lim maskanlarida berilgan ilm asosida shakllangan. Manbalar tahlili asosida ta’lim dasturlarini asosiy qismini islom dini bilan bog‘liq ilmlar tashkil etishini aniqlash bilan birgalikda ta’kidlash mumkinki, aholi dunyoqarashining asosini islom doirasida tushuncha va ilmlar tashkil etgan. Albatta, ba’zi hollarda chet ta’lim muassasalarida yoki o‘z intilishlari natijasida dunyoviy bilimlarni egallagan shaxslar mavjud edi. Lekin, bu ayrim holatlar bo‘lib, umumiy xulosalar berish imkonini bermaydi.

Lekin shunga qaramasdan, ko‘pgina iqtidorli talabalar Abduraxmon Jome’, Xoja Xofiz Sheroyi, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mirza Bedil va boshqa shu kabi buyuk allomalar asarlariga qiziqish bilan yondashganlar. O‘z davrida bu kabi talabalar qatorida Shavqiy Kattaqurg‘oniy, Mujrim Obid, mulla Qurbonjon Xiromiy, Muztari Miriy va boshqalar bo‘lishgan. Ular o‘zlarining ijodlarida buyuk allomalar asarlaridagi fikrlarni aks ettirishga harakat qilganlar. XIX asr birinchi yarmida Samarqandda Abduraxmon ibn Muxammad Latif Mustajir Samarqandiy kabi tarixchi olimlar ham yashab ijod qilgan. Abduraxmon Samarqandiy rus sharqshunosi A.Kun boshchiligida tashkil etilgan ekspeditsiyada ishtirok etib. Uning kundaliklarini to‘ldirib borgan. “Ruznomai vistavka Maskav”, “Ruznomai safari Iskandarkul” asarlari uning qalamiga mansub. Shu davrda mashhur “Tarixi kasira” nomli tarixiy asar muallifi Sayid Sharif Raqamiy Samarqandiy ham shaharda yashab ijod qilgan. Undan tashqari, yana bir tarixchi olim Sulaymonxuja Samarqandiy “Tavsil va bayoniyi davlati mang‘it va zamoni Raximxon” nomli tarixiy asarini yaratgan. XIX asr samarqandlik tarixchi olimlar asarlari orasidan Abu Toxirxo’ja Samarqandiyning “Samariya” asarini alohida eslab o‘tish

o‘rinlidir. Bu asarda shahar topografiya, shahar tarixi bo‘yicha boy faktik ma’lumotlar keltirilgan⁶³.

Samarqandda madrasalar sonini aniqlashda muayyan nomutanosibliklar mavjud. Chunki imperiya ma’murlari hamda keyingi davrlar tadqiqotchilar keltirgan ma’lumotlar turlichay. Ularda keltirilgan raqamlar bir-birini takrorlamaydigan ma’lumotlardan iborat.

Amirlikda, shu jumladan, Samarqand shahrida ham bilimlarni eng yaxshi tarqatuvchisi bo‘lgan kitob nashr etish ishi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. Ilmi bo‘lgan, kitob qadrini bilgan shaxslar tomonidan shaxsiy kolleksiyalarda kitoblar saqlangan. Undan tashqari, mazkur toifa kishilari kitoblarni qayta ko‘chirtirish ishlarini ham tashkil etganlar.

Ta’kidlash joizki, XIX asrda Samarqand Alisher Navoiy asarlarini targ‘ibotida muhim rol uynagan. Misol uchun, 1824-1825 yillarda hattot Mir Abdulxay shoirning “Xazinai ul-maoniy” asarini sharqona uslubda qayta ko‘chirgan. Yana bir hattot mulla Muqimxon 1849-1850 yillarda ustalik bilan uning “Xamsa”sini qayta ko‘chirgan⁶⁴. 1904-1910 yillarda Said Abdusalom tomonidan ko‘chirilgan Alisher Navoiy asarlari Samarqandda litografik uslubda nashr etilgan.

Navoiyning “Maxbub ul qulub”, “Chahor devon” kabi dunyoga mashhur, o‘zbek adabiyotining durdoni asarlari ham XIX asr birinchi yarmida qayta ko‘chirilib, keng o‘quvchilar orasida tarqatilgan edi. Undan tashqari, Mashrab, Xuvaydo, Sayqaliy, Shavqiy, Amiri G‘oibiy va boshqa shu kabi mashhur adabiyot namoyondalarining asarlari qayta ko‘chirilgan va o‘quvchilar orasida tarqalganligi haqida ma’lumotlarni ham uchratish mumkin⁶⁵.

XIX asr birinchi yarmida nodir qo‘lyozmalarni to‘plash va qayta ko‘chirish ishlari ham keng rivojlangan. Hattot Abdujabbor Nayman Samarcandiyl Abu

⁶³ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века ... – С. 39.

⁶⁴ Абдуллаев В. Навоинские чтения и последователи Навои в Бухаре в XIX веке. // Общественные науки в Узбекистане, 1962, №4.

⁶⁵ Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 36.

Xanifaning “Al fiqx al-akbar” (Katta huquqshunoslik) asarini, mulla Abulfayz Samarqandiy Mirza Qurbon Xiromiyning “Chor darvesh” dostonini qayta ko‘chirdilar. Ilg‘or fikrlovchi hattotlardan mulla Mirza Muxammad Oxun ibn Odin Muxammad Samarqandiy, mulla Sayid Abdulkaxob Samarqandiy. Muxammad Nuriddin ibn Muxammad. Olim Samarqandiy, Muxammad Rofe’ ibn SHayx Muxammad Solih Samarqandiy, Muxammad Yusuf Samarqandiy, Muxammad Yoqub Samarqandiylarni nomini keltirish mumkin⁶⁶.

Albatta, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Samarqandda ilm-fan sohasida qilinayotgan katta ishlardan darak beradi. Lekin, XIX asr o'rtalarida Samarqand shahrida mavjud ta'lim maskanlari va ularda ta'lim olayotgan yoshlar soniga nisbatan mazkur ishlar xajman kichik edi. Ya'ni, aytish mumkinki, madrasalarda ta'lim oluvchilar uchun zamonaviy bilimlar majmuini, o'tmish ajdodlar ilmiy merosini o'zida aks etuvchi adabiyotlar etishmasligi muammosi mavjud edi. Kitob nashr ishining rivojlanmaganligi, mavjud adabiyotlar orasida yangi bilimlar aks etganligining etarli darajada emasligi ilmiy sohadagi rivojlanishga to'siq sifatida ta'sir o'tkazar edi. Bir so'z bilan aytganda, ilmiy bilimlar beruvchi madrasalarda ma'lumot almashinuvi jaxon taraqqiyotidan ortda qolayotgan edi.

Xalq orasidan chiqqan iste'dodli shaxslar madaniy qadriyatlarni ham yaratuvchisi va asrovchilari vazifasini o'tadilar. Bu davrda xalq ijodiyoti rivojlangan. Ko'cha teatr namoyishlari omaaviy tus olgan edi. Bu tomoshalarda akrobatlar, jonglyorlar, dorbozlar, raqqoslari, ko'zboyloqchilar, hayvon urgatuvchilar va boshqa shu kabilar ishtirok etishgan. Ommaviy sayillar va bayramlarning barchasi daydi musiqachilar ishtirokisiz bo'lman. Qo'shiqchi va sozandalardan iborat xalq teatri artistlari “sozanda” deb nomlanuvchi ijodiy guruhlarni tuzganlar. Qo'g'irchoq: qo'l-qo'g'irchoq va chodir-hayol teatrlar tomoshalari ommaviy tusga kirgan. Mazkur tomoshalarda san'atkorlar mehnatkash aholi ustidan zulm qilgan yirik mulkdorlar, ularga bu borada ko'makchi bo'lgan qozilar, din peshvolari va mansabdorlar qilmishlarini qoralaganlar.

⁶⁶ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века ... – С. 40.

O‘rta Osiyo, shu jumladan, Samarqand ahlining ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi madaniy-ma’rifiy hayotning barcha sohalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymas edi.

XIX asr birinchi yarmida muhim ijtimoiy muassasa sifatida hammomlar gavdalananadi. Ularning an’anasi ilk o‘rta asrlardan shakllangan. O‘rta Osiyo hammomlarini arxitekturasi, isitish tizimi, maxsus suv o‘tkazmaydigan qorishmalardan foydalangan holda qurilgan. V.V.Bartoldning ma’lumot berishicha Samarqandda hammomlar qurilishi an’anasi Ulug‘bek davri – XV asrda ham amaliyotda urf bo‘lgan⁶⁷. Samarqand hammomlari haqida D.L.Ivanov qiziqarli ma’lumotlarni beradi: “Samarqand mahalliy aholisi uchun hammomlar o‘ziga qurilishga ega bo‘lib, bir-biriga nihoyatda o’xshash. Tashqaridan hammolar keng, pastqam, toshdan ishlangan bo‘lib, bir necha gumbazlarga ega. Hammolar 7-8 xonadan iborat bo‘lib,sovuqdan issiqqa tomon xonalarda harorat ko’tarilib boradi”. XIX asr 60-yillarida Samarqandda 7 hammom bo‘lib, ularning barchasi gigiena vositasi bo‘lish bilan birga dam olish maskani ham hisoblangan. Ya’ni, bu muassasalar ma’lum ma’noda aholini yashash madaniyatini o‘zida aks ettirgan

⁶⁷ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т. II. – М., Наука, 1964 . – С. 129-130; Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX в. (позднефеодальный город и его население). – М., Наука, 1966. – С. 62.

Xulosa

Ta'kidlash joizki, Samarqand tarixini o'rganish, shaharning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish, shu bilan to'plangan tajriba asosida shahar taraqqiyotining hozirgi va kelgusi davrlarida kechadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon uchun foydali bo'lgan zarur xulosalar chiqarish imkonini beradi. Samarqand shahrining har bir tarixiy davrini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda milliy tariximizda muhim o'rinn tutgan Samarqand shahri tarixini haqqoniy yoritish, uning ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotgan chor mustamlakasi va sobiq ittifoq mustabid tuzumi davri tarixini keng ilmiy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, tadqiqot mavzuining dolzarbliji ko'p ming yillik tariximizning yangi bosqichi hisoblangan mustaqillik davrida o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniqlab olishimizga xizmat qiladigan o'tmishimizni anglash, xolis baholash hamda undan yaqin va uzoq istiqbolimiz uchun hayoti-amaliy xulosalar chiqarishning zarurati bilan ham belgilanadi.

Birinchidan, Samarqand tarixiga doir manbalar shahar tarixini o'rganishga oid ilmiy qarashlar rivojiga pozitiv yoki negativ ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Shu ma'noda, o'sha davr siyosiy jarayonlarini ham nazardan soqit qilmasdan o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, o'tmish tajribasining o'zlashtirilishi, vorislikning ta'minlanishi, shahar tarixini tadqiq etishdagi ilmiy izchillikning yuzaga kelishida, jamiyatda qaror topgan, keng qamrov va mazmun kasb etadigan demokratik ruh muhim o'rinni egallaydi. Bu ma'naviy-ma'rifiy omil, uning konkret ko'rinishlarining milliy tarixni o'rganishga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tadqiq etish lozimligini anglatadi.

Uchinchidan, yaqin o'tmishdan farqli ravishda mustaqillik sharoitida shahar tarixini ilmiy asosda o'rganish keng qamrovli xarakter kasb etmoqda. Mazkur

yo'nalishda amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning nazariy va amaliy ahamiyati beqiyos. Bu Samarqand tarixini o'rganishga doir tadqiqotlarning mustaqillikkacha va undan keyingi davrga xos bo'lgan xususiyatlarini qiyosiy o'rganish va shundan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlarni ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, har qanday hodisa kabi milliy tarixni, xususan Samarqand shahri tarixini o'rganish jarayoni har doim ham bir tekis kechmasligi, har bir davrda o'ziga xos muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bu ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning samaradorligini ta'minlaydigan konkret amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish o'ta muhim ekanini ko'rsatadi va bu o'z navbatida shahar tarixiga tegishli qimmatli manbalarni ilmiy xolislik asosida tadqiq etish zaruratini belgilab beradi.

Foydalanilgan abbiyotlar ro'yxati

- 1.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. // Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 1998.-
- 2.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент, «Шарқ», 1998.
- 3.Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., “Маънавият”, 2008.
- 4.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.- Т. Ўзбекистон. 2011.
- 5.Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 6.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ қаби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 7.Абу Тохир Хожа. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Пер. В.Л.Вяткина. – Справочная книжка Самаркандской области за 1889 г. Вып. IV. – Самарканд, 1889.
- 8.Абрамов М.М. Гузары Самарканда. – Ташкент; Узбекистан, 1989. –
9. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Душанбе, 1926.
10. Абдуллаев В. Навоинские чтения и последователи Навои в Бухаре в XIX веке. // Общественные науки в Узбекистане, 1962, №4.
11. Беневени Ф. Реляция из Бухары от 10 марта 1722 года.
12. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков Д.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973 г.
13. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане 1865-1924 гг.– Москва: «Наука», 1960.
14. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград, 1927.
15. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва: Изд. А.
16. Воҳидов Ш. Ўрта Осиё ҳонликларида давлат бошқарувига доир. (XIX аср — XX асрнинг бошлари-Гулкстон. 2001. 65.
17. Иванов П.П. К истории развития горного производства в Средней Азии. – М.-Л., 1932.

18. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975.
19. Мирза Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. Масъул муҳаррир Чориев З.У. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2009.
20. Мирзаев К.М. Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарском ханстве. -Т.1954,
21. Мукминова Р.Г. Очерк по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Т., Фан, 1976.
22. Населенис пункты Бухарского Эмирати (конец XIX нач. XX к) // Материалы к исторической географии Средней Азии. -Т.: Университет 2001.
23. Нормуродова Г.Б XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. Т.2013
24. Сайдкулов Т.С. Самарканد во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970.
25. Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX в. (позднефеодальный город и его население). – М., Наука, 1966.
26. Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992.
27. Қиличев Р. Оламда яхши қоғаз самарқанддин чиқар... // Қуйи Зарафшон воҳаси: ижтимоий, маданий, маънавий ҳаёти тарихи (иккинчи китоб). – Тошкент: Фан, 2007.
28. Ҳабибуллаев Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш. – Т.: Фан, 1992.